

ASROR MO‘MIN

CHEMPIONLIK SIRLARI

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”

Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent

75.1
M99

Taqrizchi:

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
jurnalist **Safar Ostonov**.

Salomatlikni mustahkamlashda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish muhim ahamiyatga ega. Bu borada yoshlarning bilimini donolarning o'lmas merosi boyitadi, taniqli sportchilarning bosib o'tgan yo'li esa ularga ibratdir. To'plamga kiritilgan badialarda salomatlik haqidagi qimmatli fikrlaridan unumli foydalanilgan va yomon illatlarning sog'liqqa zarari to'g'risida misollar keltiriladi. Shuningdek, mashhur sportchilarning bolalar uchun ibratli bo'lgan hayot yo'li qiziqarli bayon etiladi.

M $\frac{4201000000}{358-2007}$ - 19

ISBN 978-9943-07-016-5

© "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"
Davlat ilmiy nashriyoti, 2007

MASHHUR SPORTCHI BO'LMOQCHIMISIZ?

Bolalar mashhur sportchilarga havas bilan qarashadi, tez-roq ular darajasiga erishishni istashadi. Lekin bolalar mashhur sportchilar shunday darajaga ko'tarilish uchun necha yillar tinmay mashq qilishganini, maqsadi yo'lida qancha qiyinchiliklarni sabr-bardosh bilan yengib o'tishganini ko'z oldiga keltira olmaydilar. Ha, raqiblarni yengib, g'oliblik shohsupasining yuqori pog'onasiga ko'tarilish, muxlislar olqishini olish, el-yurt nazariga tushish oson emas. Men mashhur sportchilarga bag'ishlangan "Sening yulduzlaring, Vatan!" kitobini yozish jarayonida bunga yana bir karra ishonch hosil qildim. Sportchilarning g'oliblik yo'lini diqqat bilan o'rganar ekanman, ular hayotida bolalar uchun ibratli voqealarni ko'rdim. Ishonamanki, ularning hayot yo'li endigina sport bilan shug'ullanayotgan bolalar uchun o'ziga xos maktab bo'ladi.

Aziz bolalar! Sportda muvaffaqiyat qozonish uchun avvalo bolalikdan o'zingizga mos, qobiliyatingizga yarasha sport turini tanlashingiz lozim. Boks bo'yicha Olimpiya chempioni Muhammadqodir Abdullayev 12 yoshidan, shohmot bo'yicha xalqaro grossmeyster Rustam Qosimjonov 5 yoshidan o'zlarini qiziqtirgan sport turi bilan shug'ullanganlari uchun shunday muvaffaqiyatlarga erishishdi. Endi o'zingiz tasavvur qiling, Muhammadqodir bolalikdan shohmot bilan, Rustam esa boks bilan shug'ullanganida hozirgiday mashhur sportchilar bo'lisharmidi? Albatta, yo'q.

Ba'zan bolalar do'stlari bilan birga o'zlariga yaqin joydagi sport to'garagiga qatnay boshlashadi. Shunda u bu turga qiziqmasli-

gini yoki boshqa sport turiga qatnashganda muvaffaqiyatga erishishi mumkinligini sezib qoladi. Bunday hollarda sizga fristayl bo'yicha Olimpiya chempioni Lina Cheryazova yoki muaytay (tailandcha boks) bo'yicha besh karra jahon chempioni Yerkinboy Qutiboyevning hayot yo'li misol bo'lishi mumkin. Akrobatika bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'lgan Linadan fristaylda o'z kuchini sinab ko'rishini so'rashdi. U taklifga rozi bo'ldi va fristayl turiga qiziqib qoldi. Mashg'ulotlarga astoydil kirishib, ko'p o'tmay fristayl bo'yicha jahon chempioni, jahon kubogi g'olibi va Olimpiya chempioni bo'ldi. Yerkinboy bolaligida erkin kurash bilan, talabalik yillarida avval boks, keyin kikkoksing bilan shug'ullandi. Hatto kikkoksing bo'yicha Yevropa chempionatida g'olib chiqdi. Shunday bo'lsa-da, u muaytayda ham kuchini sinab ko'rdi va astoydil shug'ullanishga kirishdi. Tez orada Yerkinboy muaytay bo'yicha jahon chempioni unvonini qo'lga kiritdi va bu unvonini yana to'rt bor muvaffaqiyatli himoya qildi. Osiyo o'yinlarida g'olib chiqdi, el-yurt nazariga tushdi. Yana savol tug'iladi: Lina Cheryazova mashhur akrobachi yoki Yerkinboy Qutiboyev taniqli erkin kurashchi bo'lishi mumkinmi? Albatta, ularning bunday darajaga ko'tarilishlarini ko'z oldimizga keltirishimiz qiyin. Demak, kechikib bo'lsa ham o'z imkoniyatiga mos sport turini tanlash muvaffaqiyat keltiradi.

Sportda muvaffaqiyat qozonishning ikkinchi muhim omili – mag'lubiyatlardan tushkunlikka tushmaslikda, maqsad sari sabr-bardosh bilan intilishda. Muhammadqodir Abdullayevning ham avvaliga xalqaro musobaqalarda omadi yurishmadi: Osiyo chempionati finalida yengildi, jahon chempionati va Atlanta olimpiadasida birinchi “jang”dayoq mag'lubiyatga uchradi. Bunday mag'lubiyatlar ko'plab bokschilarning irodasini sindirgan, ammo 25 yoshli Muhammadqodir o'zida qo'shimcha kuch-iroda topa oldi va mashg'ulotlarga zo'r berdi. Bor-yo'g'i ikki yarim yil ichida Osiyo va jahon chempioni, jahon kubogi va Osiyo o'yinlari g'olibi bo'ldi, olimpiada shohsupasining yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Mashhur bokschimiz Artur Grigoryanni ham bolalar yaxshi

bilishadi. Artur 1993-yili Xelsinkida o'tkazilayotgan jahon chempionatiga katta umidlar bilan borgandi, lekin omadi yurishmadi. 26 yoshga kirgan Artur sportdagi keyingi faoliyati haqida chuqur o'ylab, to'g'ri qarorga keldi. U havaskorlik boksidan birmuncha og'ir bo'lgan professional boksga o'tdi, mashq-mashg'ulotlari hajmini oshirdi. Natijada, 61,2 kg vaznda 18 marta jahon chempioni bo'ldi, el-yurt hurmatini qozondi. Agar Muhammadqodir yoki Artur muvaffaqiyatsizlikka uchragan davrlarida irodasizlik qilishganida shunday yorqin g'alabalarga erisharmidi?!

Hal qiluvchi musobaqalarda sportchi zimmasidagi mas'uliyatni chuqur anglashi muvaffaqiyat garovidir. Musobaqalar paytida "shu narsani qila olmayman" degan ishlarni bajarsangizgina hayajonli g'alabalar qozonasiz. Taniqli bokschimiz O'tkir Haydarov 1999-yili AQSHda o'tkazilgan jahon chempionatini intiqlik bilan kutgandi. Afsuski, birinchi "jang"da g'alaba qozonganiga qaramay chap qo'lidagi panjasi sindi, quloq pardasi jarohatlandi. Bunday jarohatlar bilan O'tkir musobaqani davom ettirmasa ham hech kim e'tiroz bildirmasdi. Biroq, O'tkir o'zining g'alabasi O'zbekistonimiz uchun muhimligini, xalqimiz va mehribon onasining kayfiyatini ko'tarishini his qilib, jarohatlanganini yashirdi va musobaqalarni davom ettirdi. Og'riqlarni pisand qilmay raqiblarni ketma-ket mag'lubiyatga uchratdi va yurtimizga jahon chempioni sifatida yorug' yuz bilan qaytdi.

Taniqli futbolchimiz Mirjalol Qosimovning matonatini esga olaylik. U 1996-yil 19-iyunda terma jamoamizning tojikistonliklar bilan bo'lgan hal qiluvchi uchrashuvida og'ir jarohatlandi. Lekin terma jamoamizning g'alabasini ta'minlamaguncha maydonni tark etmadi. Keyin esa, bir necha murakkab operatsiyalarni boshdan kechirdi. Og'ir sinovdan mardonavor o'tib, 15 oydan keyingina katta futbolga qaytdi. Yana chiroyli o'yinlari bilan muxlislarga quvonch ulashdi.

1998-yil Tailandda o'tayotgan 13-Osiyo o'yinlari paytida Yerkinboy Qutiboyev betoblanib qoldi. Yurtimiz vakillarining Tailand

xalqini qoyil qoldirishi uchun ularning milliy sport turi – muaytaydagi g'alabasi jamoamizga suv va havoday zarur edi. Qoraqalpoq polvoni shunday paytda "kasalman" deyishi mumkinmide?! Yerkinboy tomoshabinlar bilan to'lib-toshgan ulkan o'yingohda raqiblari ni chiroyli usullarda yengishga kirishdi. Tailandlik muxlislar O'zbekistonni, Yerkinboyni olqishlab turishdi.

Tabiatan har bir bola iste'dodli bo'ladi. Faqat biri adabiyotda, ikkinchisi matematikada, uchinchisi kasb-hunarda... Sportda ham shunday. Qaysidir bolaning boksga, boshqasining shohmotga, yana birining kurashga qobiliyati bor. Agar siz sportning biror turiga qobiliyatingiz borligini sezsangiz, albatta shug'ullaning. Qiyinchilikdan cho'chimasdan, mag'lubiyatlardan tushkunlikka tushmay mashg'ulotlarni astoydil davom ettiring. Hal qiluvchi musobaqalar paytida esa qanday ahvolga tushmang, aynan sizning g'alabangiz O'zbekistonimiz uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini aslo unutmang! Ana shunda siz ham mashhur sportchilar qatoridan albatta o'rin olasiz.

Yana shuni unutmasligingizni istardim: mashq-musobaqalarda yuqori natijalar ko'rsatgan bilan hamma ham sport uchun yaralmagan bo'lishi va boshqa sohada o'zini ko'proq namoyon etishi mumkin. Chunonchi, qadimgi yunon matematigi, faylasufi Pifagor turli toifadagi boks musobaqalarida g'olib chiqqan, daniyalik taniqli fizik Nils Bor o'z mamlakati futbol terma jamoasining darvozaboni bo'lgan, yurtimizning mashhur akademigi, biokimyogar olim Yolqin To'raqulov juda yaxshi shohmot o'ynardi. Ular sportda emas, ilm sohalarida kashfiyotlar qilishib, dunyoni lol qoldirishgan. Shu bois siz ham umr yo'lingiz haqida o'ylab turing va chuqur mulohazalardan keyin to'g'ri qaror qabul qiling.

ILM SO‘QMOQLARIDAN YUKSAKLIKLARGA INTILING

Ko‘cha changitib to‘p tepayotgan, umuman o‘yinqaroq bolalarni ko‘rganda ularning behuda o‘tayotgan vaqtiga achinaman. Chunki, bu bolalarning ayni kitob o‘qiydigan, bilim o‘rganadigan davri. “Bolalikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdir”, deb bejiz aytilmagan. Ha, bolalikning har bir soati, har bir daqiqasining qimmatini baland. Akademik shoirimiz G‘afur G‘ulom ta’kidlaganidek:

Bir onning bahosini o‘lchamoq uchun
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.

Zakiiy ota-bobolarimiz azal-azaldan farzandlarning ta’lim-tarbiyasiga jiddiy e’tibor berganlar. Ular birinchi navbatda bolalarni ilmi qilish uchun qayg‘urganlar. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining durdonasi hisoblangan “Alpomish” dostonini eslang. Doston qahramonlari Boybo‘ri va Boysari farzandli bo‘lishadi.

“Shunda bolalar kundan kun o‘tib, oydan oy o‘tib, birdan ikkiga kirib, ikkidan uchga kirib, tili chiqib, elga engandan keyin qo‘lidan tutib, uchovini ham maktabga qo‘ydi. Bular maktabda o‘qib yurib, yetti yoshga kirdi. Savodi chiqib xat o‘qib, yozadigan mulla bo‘ldi. Shunda Boybo‘ri: “O‘g‘lim savodi chiqib mulla bo‘ldi, o‘g‘limga endi shohlik, sipohilik ilmini o‘rgataylik”, – deb maktabdan chiqarib oldi.

Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon barichdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o‘n to‘rt botmon yoyini qo‘liga ushlab ko‘tarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi. Yoyning o‘qi yashinday bo‘lib ketdi, Asqar tog‘ning katta cho‘qqilarini yulib o‘tdi, ovozi olam-

ga ketdi... Yetti yoshida yoyni ko‘tarib olgani uchun Alpomish alp atandi”.

E‘tibor bering, Alpomish savodxon, mulla bo‘lganidan keyin-gina sipohiylik ilmini o‘rganishga kirishgan.

Hazrati Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini es-lang. Farhod uch yoshga to‘ladi:

Ajabdir uch yoshida ko‘zga atfol,
Nechukkim o‘n yoshida o‘zga atfol.
G‘olib bu ishda el hayroni oning,
Sipehru mehr sargardoni oning.
Ato bu nav ko‘rgach ish hisobin,
Munosib angladi ilm iktisobin.
Keturdilar hakimi nuqtadone,
Bilik birla jahon ichra jahone...
Yorutqoch bazmni donoyi olam,
Tilab shahzodani doroyi olam.
Qilib ta‘limiga yuz navo ta‘kid,
Falak olinda manzil tutdi xurshed...
Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.
Bo‘lib o‘n yoshqa umrining mururi,
Yigirma yoshqa qaddi jismi zo‘ri.
Ulum avroqi chun bir-bir yopildi,
Dilovarlik silohi mayli qildi.

Bu misralarning nasriy bayoni G‘afur G‘ulom nazdida shun-day: “Taajjubi shuki, uch yoshga kirgan bu bola ko‘rinishidan o‘n yashar bolaning didini berar edi. Bu ishga hamma hayron. Dun-yo ham, quyosh ham uning boshida sargardon edi. Otasi o‘g‘lini bu xilda ko‘rgach, unga ilm kasb etishini munosib deb tushundi. O‘z bilimining kengligi bilan jahon ichra o‘zi bir jahon bo‘lgan, bi-limdon bir donishmandni keltirdilar... Shoh bazmini bu olam bi-limdoni yoritgach, olam hukmdori – Hoqon shahzodani chaqirdi.

Muallimga ta'kidlab, unga ta'lim berishni topshirdi... Dunyoda u egallamagan, o'rganib tagiga yetolmagan biron ilm qolmadi. Uning yoshi atigi o'n yoshga borgan bo'lsa ham, uning gavdasi, qaddi-qomati, kuch-quvvati yigirma yosh yigitlarnikidek edi. Uning uchun bilim kitoblari bir-bir yopilgach, u endi jangovarlik yaroqlarini egallashga mayl qildi".

Yana diqqatingizni Farhodning o'rganib tagiga yetolmagan biron ilm qolmaganidan keyingina jangovarlik yaroqlarini egalashga mayl qilganiga qaratmoqchiman. Chindan ham bolaning oldidagi birinchi vazifa: avval bilim olishdir. Dunyoda qomusiy olim sifatida tan olingan alloma Abu Rayhon Beruniy bobomiz umri mazmuni to'g'risida shunday yozgandi: "Mening fikr-u yodim, butun qalbim ilm-fanni targ'ib qilishga qaratilgan. Men bilim orttirishdek lazzatdan bahramand bo'ldim, buni men ulkan baxt deb hisoblayman". Ulug' hakim Abu Ali ibn Sino ham shunday ta'kidlagan: "Tan riyozatidan ko'proq ruh riyozati lozimdir".

Shu o'rinda sizning tan sog'ligi zarurligi to'g'risidagi e'tirozingizni oldindan payqaganimiz uchun dono ma'rifatparvarimiz Abdulla Avloniyning fikrlarini keltiramiz: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad zarurdir". Bu fikrlar yunon faylasuflarining "Sog'lom tanga – sog' aql", degan falsafasiga naqadar hamohang. Darhaqiqat, sog'lom tanga erishishdan maqsad, ko'proq bilim o'rganishga zamin tayyorlashdir.

Hozirgi kunda bolalarning o'qishi uchun kitoblarning ko'pligini ko'rganda ko'zlar quv naydi, dillar yayraydi. 12 jildli "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" chop etildi. Alisher Navoiyning 20 jildli mukammal asarlar to'plamini nashr etish nihoyasiga yetkazildi. "Bolalar ensiklopediyasi", "Mo'jiza kitob" kabi bilimga kon kitoblar, Qur'oni karim, Hadisi sharif, "Avesto" kabi tarixiy qo'lyozmalar, Xorazmiy, Farg'oniy, Beruniy, Jaloliddin Rumiy, Imom Buxoriy, Amir Temur kabi buyuk bobokalonlarimizning qimmatli asarlari

allaqachon chop etilgan. Umuman olganda, bolalar bilimini mustaqil oshirishlari uchun kitoblarimiz yetarlicha. Chunki Sohibqiron bobomiz Amir Temur nasihatlarida aytilganidek: “Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir. Hayotni o’rgatuvchi murabbiydir”.

Mustaqil O‘zbekistonimizning yosh avlodi nima uchun ko‘proq kitob o‘qishi zarur? Bu savolga javob tariqasida tafakkurimizni nurafshon etadigan quyidagi da‘vatni yana bir karra eslashni istardim: **“To‘qqizinchi – o‘n beshinchi asrlarda ma‘rifatli dunyo buxoriylar, farg‘oniylar, xorazmiylar, beruniylar, ibn sino-lar, ulug‘beklarni qanchalik izzat-ikrom qilgan bo‘lsa, yigirma birinchi asrda biz xalqimiz, millatimizga nisbatan, ana shunday ehtiromni qaytadan qo‘lga kiritishimiz kerak. O‘sha davrda ulug‘ ajdodlarimiz asos solgan va olamga dong taratgan ilmiy maktablarni zamonaviy shaklda qaytadan tiklashimiz zarur”**.

Ayni paytda, bolalarning ilm olishlari, ya‘ni ma‘naviy jasoratga chog‘lanishlari uchun katta imkoniyatlar eshigi ochilgan. Yurtimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Shu bois ishonchim komil, yaqin kelajakda olimlarimizning kashfiyotlari yurtimiz salohiyatini yanada oshiradi, O‘zbekistonimiz dovruq‘ini dunyoga taratadi. Buning uchun har birimiz vaqtini g‘animat bilib ko‘proq o‘qishimiz kerak.

Bir asrki, har yili fanda olamshumul kashfiyotlar yaratgan olimlarga, dunyo xalqlari nazariga tushgan asarlar yozgan adiblarga xalqaro Nobel mukofoti topshiriladi. Hanuzgacha bu ro‘yxatda o‘zbek olimlari, adiblari yo‘q. Men bugungi yoshlar “Mustaqil O‘zbekistonimiz shuhratiga shuhrat qo‘shadigan Nobel mukofotini birinchi bo‘lib men olaman”, deya qo‘llariga kitob olib o‘qishlarini, ilm so‘qmoqlaridan yuksakliklarga intilishlarini juda-juda istayman.

Gap Nobel mukofoti haqida ketar ekan, bitta yoqimli e‘tirofni faxr-iftixor bilan esga olaman. XX asr oxirida mutaxassislar shu

vaqtgacha yashab o'tgan barcha fozillarning kashfiyotlarini jamlashgan va kompyuter yordamida ularning nechta yo'nalish bo'yicha Nobel mukofoti olishi mumkinligini aniqlashgan. Zamonaviy kompyuterlarning xulosasi bo'yicha dunyodagi bitta allomagina Nobel mukofotini to'rtta yo'nalish bo'yicha olar ekan. U bizning vatandoshimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiydir. Dunyodagi to'rtta alloma esa Nobel mukofotini uchta yo'nalish bo'yicha olar ekan, ulardan ikki nafari bizning vatandoshlarimiz Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinodir. Ha, biz ana shunday zakiy allomalarning vorislarimiz, ilmiy salohiyati juda katta xalqning farzandlarimiz.

Oqqan daryo oqmay qolmaydi. Mana ming yildan keyin Xorazm Ma'mun akademiyasi qayta faoliyatini boshladi. Hozirgi kunda yurtimizda ilm-fanni rivojlantirish uchun barcha sharoit yaratilgan. Shu bois zakiy ajdodlarimiz kitoblarini qo'llaridan qo'ymay o'qib, bilimlarini zamonaviy texnika asoslarida mustahkamlayotgan yoshlarni ko'rganda ularga havasim keladi. Chunki bu yoshlar kelajagi buyuk O'zbekistonimizning yangi xorazmiylari, yangi beruniylari, yangi ibn sinolaridir. Ishonchim komil, ularning safiga siz ham qo'shilasiz, mening aziz yosh do'stim! Buning uchun umringizning har bir oni qadriga yetishingiz va bilimingizni tinmay boyitishingiz kerak.

O'ZBEKISTON – KURASH VATANI!

Xalqimiz 1-sentabrni Mustaqillik kuni sifatida bayram qilsa, 6- sentabrni o'zbek kurashining xalqaro maydonga chiqqan kuni sifatida nishonlaydi. Ha, 1998-yil 6-sentabr sanasi ham Vatanimiz tarixiga zarhal harflar bilan yozilgan. O'sha qutlug' kunda AQSH, Boliviya, Buyuk Britaniya, Rossiya, O'zbekiston, Yaponiya kabi 28 davlat vakillari Toshkentda o'tkazilgan ta'sis konferensiyasida Xalqaro kurash assotsiatsiyasi muassislari bo'lishdi va shu munosabat bilan poytaxtimizda O'zbekiston Prezidenti sovrini uchun o'zbek kurashi bo'yicha nufuzli xalqaro musobaqa tashkil etildi.

Shu tariqa milliy qadriyatlarimizning ajralmas bir qismi bo'lgan o'zbek kurashi jahonga yuz tutdi. Kurashimiz bilan birga jahon maydonlarida "kurash", "to'xta", "halol", "yonbosh" kabi so'zlarimiz o'zbekona lutfda jaranglay boshladi. Agar kurashchilardan biri moviy yaktakda, ikkinchisi yashil yaktakda, o'rtadagi hakam oq ko'ylakda ekanligini nazarda tutsak, hakam va kurashchilar kiyimlari ranglari timsolida ham ozod O'zbekistonimiz bayrog'i xalqaro maydonlarda muzaffar hilpiraydigan bo'ldi.

Milliy kurashimizning ildizlari baquvvat va ular ming-ming yillik tarix qatlaridan oziq oladi. Fikrimizni arxeologik topilmalar va tarixiy qo'lyozmalar tasdiqlaydi. O'zbekistonning janubiy hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalib yiqitayotgani tasvirlangan. Shu davrga oid boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan bir yarim ming yillar ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo'lganidan dalolat beradi.

Milodgacha yashagan yunon-Rim tarixchilari kitoblarining O'рта Osiyo xalqlari hayotiga bag'ishlangan boblarida kurash musobaqalariga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Ahamiyatlisi, ko'hna zaminimizdagi ayollar ham kurash bilan shug'ullangani qayd etilgan. Xususan, II–III asrlarda yashagan yunon yozuvchisi Klavdiy Ellianning yozishicha, shu hududda umr kechirgan sak qabilasi qizlari o'zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart qo'yish yo'li bilan aniqlashgan va bu shartda kurash musobaqasi bo'lgan. Bunga o'zbek xalq qahramonlik dostoni – “Alpomish”dagi Barchin shartlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Albatta, dunyoga dong'i ketgan buyuk ajdodlarimiz asarlarida kurashga keng o'rin berilgan. Ulug' tabib Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida shunday yozgan: **“Kurashning turlari ham bir nechadir. Ulardan biri ikki kurashuvchining har biri o'z raqibining belbog'idan ushlab o'ziga tortadi, shu bilan birga o'z raqibidan qutulishning chorasini qiladi...”**. Bu ta'rif zamonaviy kurash qoidalariga hamohangdir. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Majolis un-nafois”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye”, Husayn Voiz Koshiyning “Futuvvatnomai sultoniyy”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarida ham kurash va polvonlar haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Afsuski, XX asrda ming-ming yillik tarixga ega bo'lgan milliy kurashimizni xalqimiz turmush tarzidan sun'iy ravishda siqib chiqarishga harakat qilishdi. O'zbekistonimizning mustaqillikka erishishi bu urinishlarga uzil-kesil barham berdi. Faxrlanarlisi shundaki, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq milliy kurashimiz o'z bo'y-bastini ko'rsatdi. “Sport” gazetasining 1991-yil 17-sentabr sonida kurashchilar sulolasi vakili Komil Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan o'zbek kurashining xalqaro andozalarga mos zamonaviy qoidalari ilk marta e'lon qilindi. 1992-yildan boshlab yurtimizda O'zbekiston Prezidenti sovrini uchun

qator nufuzli xalqaro musobaqalar tashkil etildi. Bu musobaqalar kurashimizning, polvonlarimizning qaddini rostladi, milliy sport turimizga jahon darvozalarini ochdi. Nihoyat, polvonlarni tarbiyalab kelayotgan xalqimizning asriy orzusi ro'yobga chiqdi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi faoliyat ko'rsata boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 1-fevralda imzo chekkan "Xalqaro kurash assotsiatsiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni o'zbek kurashining yanada rivojlanishiga turtki bo'ldi. O'sha yili o'zbek kurashi bo'yicha Toshkentda birinchi jahon chempionati, Rossiyaning Bryansk shahrida ayollar o'rtasida ilk xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi qoshida Xalqaro kurash akademiyasi va Butunjahon kurashni rivojlantirish jamg'armasi tuzildi. Respublika miqyosida kurashni yanada ommalashtirishga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi. Bir oy davom etgan tadbir davomida 2 millionga yaqin kishi gilamga chiqdi. 2000-yilda Turkiyaning Antaliya shahrida ikkinchi jahon chempionati muvaffaqiyatli o'tdi. Unda ayollar ham chempionlik uchun kurash olib borishdi. 2001-yilda Vengriyada, 2002-yilda Armanistonda navbatdagi jahon chempionatlari uyushtirildi. 2005-yilda yana Toshkent jahon chempionatiga mezbonlik qildi.

2000-yilda Buyuk Britaniyada Xalqaro kurash assotsiatsiyasi Faxriy prezidenti Islom Karimov nomidagi an'anaviy xalqaro musobaqaga asos solindi. 2005-yildan Gretsiyada ham shunday an'anaviy xalqaro musobaqa o'tkazila boshlandi.

Hozirgi kunda Xalqaro kurash assotsiatsiyasiga 86 ta davlatning kurash federatsiyalari a'zo. Afrika, Yevropa, Okeaniya, Osiyo va Panamerika konfederatsiyalari faoliyat ko'rsatyapti. Xorijiy mamlakatlarda o'zbek kurashi bilan shug'ullanuvchilar soni kun sayin oshib boryapti. Bunga kurash bo'yicha jahon, qit'a, mamlakatlar birinchilik va chempionatlari, shuningdek, turli toifadagi xalqaro musobaqalar muntazam ravishda o'tkazilayotgani sabab bo'lyapti. Osiyo Olimpiya kengashi 2003-yilda kurashni Osiyo

o'yinlari dasturiga kiritdi. Ya'ni, 2006-yilda Do'hada bo'lgan Osiyo o'yinlarida kurash musobaqalari ham o'tkazildi.

To'g'ri, o'tgan shukuhli yillarda kurashning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish borasida katta ishlar qilindi. Lekin oldimizda bundanda ulkanroq vazifa turibdi. Bu kurashni Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritishdir. Shu bois boshlangan xayrli ishimizda sust-kashlikka yo'l qo'yishga, erishgan muvaffaqiyatlarimizga mahliyo bo'lib, xotirjamlikka berilishga haqqimiz yo'q. Chunki biz kurashning yuksalishiga, uning Olimpiya o'yinlari dasturiga kirishi uchun mas'ulmiz.

Darhaqiqat, bizni sport sohasida ham farahbaxsh yo'l kutmoqda. Buning uchun birinchi navbatda kurashni rivojlantirish borasidagi mavjud sur'atni saqlab qolish bilan kifoyalanmasdan, uni yanada jadallashtirishimiz zarur. Ikkinchidan, kurashga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirishimiz, O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti qoshida kurash ilmiy muammolari laboratoriyasi ochish lozim. Uchinchidan, kurash haqida hozirgacha ma'lum bo'lgan tarixiy ma'lumotlar va kurash usullari, texnikasini alohida-alohida kitob holida chop ettirish darkor. Kurashning hozirgi kundagi dunyo bo'ylab shaxdam qadamlarini aks ettiradigan rangli-bezakli kitobni nashrga tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Bu kurashning targ'ibotida muhim rol o'ynaydi. Kurash muzeyini ochish tadorigini ko'rishga fursat keldi. Bunday maskan, ayniqsa, yurtimizga tashrif buyuradigan xorijlik kurash jonkuyarlarida unutilmas taassurot qoldiradi. Va nihoyat, namunaviy Kurash saroyini yoki maydonini bunyod etish davr taqozosidir. Axir, kurash talablariga javob beradigan Kurash saroyini yoki maydonini birinchi navbatda o'zimiz qurishimiz kerak bo'ladi.

Bari bir biz, shu oddiy haqiqatni unutmashligimiz zarur: kurashni yurtimizda hozirgidan ham ko'proq ommalashtirishimiz va rivojlantirishimiz darkor. Chunki O'zbekistonimiz kurashga bog'liq barcha masalalarda dunyoning boshqa mamlakatlariga ibrat bo'lishi shart. Buning uchun har birimiz kurashni rivojlantirishga mas'ulligimizni chuqurroq his qilishimiz va xayrli maqsad yo'lida

amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarimiz samaradorligini oshirishimiz lozim.

Dzyudoning vatani – Yaponiya, taekvondoning vatani – Koreya, ushuning vatani – Xitoy, kurashning vatani – O'zbekiston! Demak, kurashni rivojlantirishga bog'liq har qanday ish bizning zimmamizdagi sharaflı vazifadir. Sportchining yuqori natijasi Olimpiya o'yinlarida g'alaba qozonishdir. Millatning, xalqning sportdagi eng yuqori g'alabasi o'z sport turini Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritishdir. Oliy maqsad yo'lida tolmaydigan bag'ri keng va serg'ayrat xalqimiz omon ekan, jonajon O'zbekistonimiz hurlik oftobi bilan nurafshon ekan, yaqin kelajakda bu orzuyimiz ham ro'yobga chiqadi: O'zbek kurashi Olimpiya o'yinlari dasturiga kiradi va dunyodagi eng jozibali sport turlari qatorida e'tirof etiladi. Ana shunday baxtiyor kunlarda "Kurash" haqidagi qo'shiq baravj yangraydi:

...Osmoni zangori, niyatlari oq,
Yam-yashil o'lkada bo'y cho'zdi umid.
Polvon o'g'lonlarga ko'ngillar mushtoq,
Har elda uyg'onsin Pahlavon Mahmud.

Odamzod naslida bo'lmasin nurash,
Elatlar, davlatlar, qit'alar birlash.
Davrada, gilamda, maydonda sirlash,
"Yo pirim" degin-u o'zbekcha kurash.

KITOBLARNING “BO‘KA”SI

Yurtimizda ommaviy sportni rivojlantirish va uning targ‘ibotini kuchaytirish borasida qator qarorlar qabul qilindi. Albatta, bu xayrli ishlarni amalga oshirishda xalqimizning uzoq asrlik shu sohaga taalluqli boy merosini chuqur o‘rganish va ulardan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ming shukurki, zakiy ajdodlarimizning jismoniy madaniyatga bag‘ishlangan ko‘plab bitiklari bizgacha yetib kelgan.

Ularda xalqimizning jismoniy madaniyatga katta e‘tibor bergani to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar bor. Hatto, unutilayozgan xalq o‘yinlari, milliy sport turlarimiz va ularga xos atamalar ham mavjud. Bu ma‘lumotlarni bilishimiz jismoniy madaniyatga oid bilimlarimizni boyitib, mamlakatimizda ommaviy sportni rivojlantirish va uning targ‘ibotini kuchaytirishdek ezgu intilishlarimizga qanot bag‘ishlaydi. Jismoniy madaniyatimizga bog‘liq qimmatli ma‘lumotlar bitilgan shunday kitoblardan biri “Boburnoma”dir.

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530)ning umri davomida yozgan “Boburnoma” qomusiy asari hech shubhasiz jahon adabiyotining durdonalari sirasiga kiradi. Mazkur kitobda ko‘pgina soha bilimdonlari uchun ahamiyatini yo‘qotmaydigan ma‘lumotlar bor. Xususan, sport ahli ham “Boburnoma”dan o‘lkamizning XVI asr boshlaridagi jismoniy madaniyatiga oid qimmatli ma‘lumotlarni topishi mumkin.

“Naziri yo‘q kishi” Hazrati Alisher Navoiyning shatranj majlislarida qatnashib turganligi “Boburnoma”da qiziqarli lavha orqali bayon etiladi: “Alisherbekka (Binoiy) xeyli mutaariz ekandur. Ul jumladin biri budurkim, bir kun shatranj majlisida Alisherbek oyog‘ini uzatur. Binoiyning (orqasiga) tegar. Alisherbek mutoya-

ba bila derki, “ajab baloyest dar Hiri agar poy daroz ba(pushti) shoir merasad” (ajab bir balodirki, Hirotda oyog’ingni uzatsang, shoirning orqasiga tegadi). Binoiy derkim, “agar jam mekuni ham ba (pusht) shoir merasad” (yig’sangiz ham shoirning orqasiga tegadi). Bu lavha mintaqamizda shatranj majlislari quvnoq kayfiyatda o’tganligidan, demakki, muntazam uyushtirilganidan dalolat beradi.

“(Zunnun) shatranjga ko’p mash’uf edi. El bir ilik bila o’ynasa, ul ikki ilik bilan o’ynar edi. Har necha ko’ngil tilar o’ynar edi”, “Yana Mir Murtoz edi. Shatranjga ko’p shag’afi bor ekandur, bu martabadakim, agar ikki harif uchrasa, biri bila shatranj o’ynab, yana birining etagini tutib o’lturur ekandurkim ketmagay deb”, “Muhammad Tarxon shatranjni bisyor o’ynar edi, yaxshi o’ynar edi”. Bu iqtiboslar besh asr ilgari ham shatranj, ya’ni shohmot xalqimizning sevgan o’yinlaridan biri bo’lganligini tasdiqlaydi.

Unutilayozgan o’yinlarimizdan biri qabaq yoki qaboqdir. Bu o’yinda yoy bilan nishonga olib, mashq qilish uchun xodaning uchiga nishon – qovoq o’rnatiladi. “Boburnoma”da shu o’yinga bog’liq lavhalar ham bor: “Sulton Ahmad Mirzo o’qni bisyor yaxshi otar erdi. Qabaqni maydonning ul boshi, bu boshidan kirib aksar urar edi”, “Yana Islim Barlos edi. Turk kishi edi. O’ttiz-qirq botmon yoy kuch bila otib, taxtadin o’tkarur edi. Qabaq maydonida maydon boshidan chopib, yoyni tushurib ko’rib, otib qabaqni urar edi”. Keltirilgan iqtiboslarga e’tibor bersangiz, qabaq o’yini uchun maxsus maydonlar tanlanganini, kattalar o’z mahoratlari ni ko’rsatib, yoshlarga ibrat bo’lishganini ilg’ab olish qiyin emas. Shuningdek, kitobda o’z davrining mergan yoyandozlari, to’fakdozlari, toshotarlari to’g’risida qiziqarli esdaliklar berilgan.

“Hasan Ya’qubbek mardona kishi edi. Chavgonni yaxshi o’ynar edi”. O’n oltinchi asrda bitilgan bu so’zlar esa, bizga o’sha davrda chavgon o’yini ommaviy ekanligidan darak yetkazadi. “Bahodur ulushini Sayid Qosim oldi. Bahodurluk ulushi mo’g’ulda qadimiy rasmdir. Har to’y va osh bo’lg’onda har kimki eldin o’zub

qilich tegurg'on bo'lsa, ul ulushni ul olur". Bu xalqimiz yig'inlarida an'anaviy ravishda qilichbozlik musobaqalari o'tkazilib turilganini ko'rsatadi.

Kitobda ko'plab tarixiy shaxslarga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Dunyoga dong'i ketgan olim Mirzo Ulug'bekning qush bilan ov qilishda anchayin mahoratli ekanligi aynan "Boburnoma"da zikr etilgan. Yoki Husayn Boyqaroning tengsiz qilichboz bo'lgani quyidagicha ta'riflanadi: "Temurbek naslidin hech kim ma'lum emaskim, Sulton Husayn Mirzocha qilich chopmish bo'lg'ay". Yoki boburiylar saltanatini davom ettirgan o'g'li haqida shunday yozadi: "Humoyun bir o'rdakni yaxshi otdi".

Zahiriddin Muhammad Boburning o'z otasi Umarshayx Mirzo haqidagi xotirasi olis o'tmishdagi bir kurash musobaqasini esga soladi: "Bisyor zarb mushti bor edi, uning mushtidan yigit yiqilmog'on yo'qtur". Kitobda bu kurash haqida boshqa lavha ham bor: "Yana Sayfiy Buxoriy edi, mahkam zarb mushti bor ekan". Xo'sh, bu qanday kurash musobaqasi? Abu Ali ibn Sino ta'biri bilan aytganda, bu ko'krak bilan zarbani qaytarish musobaqasi deb nomlanadi. Ya'ni kurashchilar navbatma-navbat g'oz turgan raqibining ko'kragiga mushti bilan zarba berib qulatishga harakat qiladi. Bunday zarbalarga mardona ko'krak kerish uchun kurashchilar qancha mashq qilganini o'zingiz tasavvuringizga keltirarsiz.

Umuman "Boburnoma"da kurash (kushti) va polvon (kush-tigir)lar haqidagi xotiralarga keng o'rin berilgan: "Tushgan yurtga kushtigirlarni kushtiga solduk. Pahlavon Lohutiy kishitibon bila Do'st Yasinxayr kushti tutti, qalin talashti, tashvish bila Do'st yiqitti. Ikkalasiga sarupo in'om bo'ldi", "Bukun kushtigirlar kushti tuttilar, pahlavon Udiykim, burun kelib edi, bu fursatga kelgan Hindustoniy kushtigir bilan kurashib yiqti, Yahyo Nuhoniyga o'n besh laklik yer Sarvordin vajhiga berib, sarupo kiydurub, ruxsat berildi", "Pahlavon Sodiq bila Ulug' Udiy kushtigir kushti tuttilar. Sodiq imkora yiqti. Xeyli tashvish tortti", "Ushbu kun Sodiq bila Kulolni kushtiga solduk. Kulol da'vo bila kelib edi. Agrada kushti

tutmoqqa yo'l kuffini uzr aytib, yigirma kun muhlat tiladi. Qirq-ellik kun muhlatidin o'tti. Bukun zarur bo'ldi, kushti tutti. Sodiq yaxshi kushti tutti, xeyli oson yiqti. Sodiqqa o'n ming tanga va egarlik ot va bosh-oyoq tugmalik chakmon in'om bo'ldi. Bovujudkim, Kulol yiqilib edi, ma'yus qilmay, anga ham saru poy va uch ming tanga in'om bo'ldi".

Mazkur lavhalarda xalqimizga, milliy kurashimizga xos go'zal urf-odatlarini o'z ifodasini topgan. Ha, azaldan xalqimiz kurashni qadrlagan, polvonlarning hurmatini joyiga qo'ygan. Bellashuvlarda g'olibga ham, mag'lubga ham himmat ko'rsatgan. O'z navbatida polvonlar ham tanti bo'lishgan. Men zo'rman deb, darhol davraga chiqib ketishmagan, talabgorga imkoniyat berishgan. E'tibor bergan bo'lsangiz, Sodiq polvon raqibini "xeyli oson" yiqitishini bilgani holda muhlat so'ragan. Hatto muhlatni qirq-ellik kun o'tkazgan. Bu unga talabgor bo'lgan Kulolning bellashuvga tayyorlanishi uchun, o'z imkoniyatini qayta chamalashi uchun yetarli muddatdir.

"O'zbek zo'r kishini bo'ka der emish". Bu jumla sport ahli lug'atini "bo'ka" degan go'zal so'z bilan boyitadi. Zero, "Boburnoma"da bunday unutilayozgan so'zlar, iboralar va jismoniy madaniyatimiz tarixini aks ettirgan qimmatli ma'lumotlar bisyor. Faqat biz unga tez-tez murojaat qilib turishimiz lozim. Shu bois Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari sport ahli uchun ham oltin meros, kitoblarning "bo'ka"si desak, hech bir mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

MARADONA

Yoki argentinalik Jalol va O'rol haqida

Bolalik do'stim Jalol bilan necha to'plarni to'zitdik, qancha maydonlarning taqirini chiqardik. Onalarimiz oldiga solib olib kelmaguncha, rahmatli otalarimiz hayqirig'ini eshitmaguncha futbol o'ynardik. Qo'shni qishloq jamoalari bilan bo'lgan uchrashuvlardan so'ng g'alabalarimizdan birga quvondik, ba'zan qo'pol xatolarimizni eslab o'kindik.

Voyaga yetib, Toshkentga kelgan kunimiz "Paxtakor" Markaziy o'yingohini ko'rgani bordik, keyin bosh jamoamizning "Chig'atoy" o'quv-mashg'ulot maskanida futbolchilarimizning chigil yozdi mashqlarini tomosha qildik. Futbol maktablariga uchrashib, yoshimiz o'tganini eshitib afsuslandik...

Ba'zan xayolga tolaman. Chekka qishloqda tug'ilib, ulg'aygan Jalol dunyoga mashhur futbolchi bo'lishi mumkinmidi? Albatta! Agar unga o'z vaqtida sharoit yaratilganda. Chunki Jalol futbolni jon-dilidan yaxshi ko'rardi, qoyilmaqom o'ynardi. Har bir o'yinda raqiblarning 3-4 himoyachisidan hayiqmay oldga tashlanardi, ularni aldamchi harakatlari bilan ortda tashlab, kuchli zarba berib darvozabonni dog'da qoldirardi yoki jamoadoshiga yuz foizlik to'p urish imkoniyatini yaratardi. Himoyada vaziyatni to'g'ri baholardi, kerakli paytlarda hujumchi oyog'iga tashlanib to'pni olardi yoki uzatilgan to'p yo'lga to'siq bo'lardi. Jamoa uchun zarur damlarda darvozada "Lev Yashin"day metin turardi.

Lekin Jalol tumanimizda ham taniqli futbolchi bo'lmadi. Uning futbolchi bo'lish orzusi olis bolalikda qolib ketdi. Zero, o'sha zamonlarda futbolchidan ko'ra bizga ilg'or ishchilar kerak, deya har kuni gapirilardi. Jalol ham ishchilar qatoriga qo'shildi.

Ha, o'sha davrda boshqa sohalarda bo'lgani kabi jismoniy tarbiya va sport tarmog'ida ham qanchadan qancha umid kurtaklari ochilmadi. Yurtimizda futbolga ishtiyoqmand Jalollar ko'p edi, ularning taqdiri ham o'xshash bo'ldi. Jalol G'allaorol tumanining O'gat qishlog'ida tug'ilgan bo'lsa, uning tengdoshi "qirq" deb atalmish "qir"dan oshgan O'rol Chiroqchi tumanidagi Xushali kentida dunyoga keldi.

O'rol ham bolaligidan sportga mehr qo'ydi. Yuqori sinflarda o'qiyotganida maktab, tuman musobaqalari usiz o'tmasdi. Eng uzoqqa sakragan O'rol, voleybolda ko'p ochko keltirgan O'rol, muhim bellashuvda g'olib chiqqan O'rol... Futbol O'rolning jon-u dili edi. Maydonga yonib tushardi. O'z jamoasining g'alabasini ta'minlamaguncha tinib-tinchimasdi. Uning o'yinini tomosha qilishga yosh-qari yopirilib kelardi. Ayrimlari "Qo'ng'ir chavandozning o'g'lidan zo'r futbolchi chiqadi", deb qo'yishardi. O'rolning o'zi ham katta futbolda shuhrat qozonish ishtiyoqida yashardi. Ammo undan ham mashhur futbolchi chiqmadi (to'g'ri, O'rolning dovrug'i butun Chiroqchiga, qo'shni tumanlarga ketdi). Zero, o'sha zamonlarda futbolchidan ko'ra bizga mirishkor dehqonlar kerak, deya har kuni gapirilardi. O'rol dehqonlar safiga qo'shildi.

Taqdir shamoli O'rolning sochlarini har maqomga o'ynatdi, biroq qaddini buka olmadi. Sochiga oq oralaguncha to'p tepdi. Oynayi jahonda berilgan barcha futbol uchrashuvlarini qoldirmasdan tomosha qildi. Sevimli jamoasi "Paxtakor" yutsa quvondi, mag'lubiyatga uchrasa "motam tutdi"... Uylandi. Farzandli bo'ldi. Qiziga tojikistonlik mashhur yoyandoz Zebuniso Rustamovaday sportchi bo'lsin deya Zebuniso ismini qo'ydi. Ko'p o'tmay oilada o'g'il dunyoga keldi. "Mashmasha"lar chaqaloqqa ism qo'yishdan boshlandi. Qishloq Kengashi kotibi "bunaqa ajnabiy ism bizga kerak emas", deyishdan, O'rol "bu ism sizga kerak bo'lmasa, menga kerak", deyishdan charchamadi. Oxiri bo'lmadi, murosa-ga kelishdi. O'g'liga "Paxtakor"ning rasmiy musoboqalardagi birinchi goli muallifi Laziz Maqsudovday bo'lsin deya Maqsud deb

ism qo'ydi. Ikkinchi o'g'il tug'ildi. Bu safar O'rol qattiq turdi. Unga o'zining eng sevimli futbolchisi Maradonaday bo'lsin deya Maradona deb ism qo'ydi. Uchinchi o'g'liga yana bir sevimli futbolchisi hurmati uchun Bloxin deb ism qo'ydi.

O'g'lonlar bo'y cho'zdi. O'rol ham to'y taraddudiga tushdi. Uning o'g'il to'yi hali-hanuz el og'zida doston. O'rol to'yiga mashhur hofiz, qiziqchilar olib kelgani yo'q. Yo ko'pkari uyushtirib, tuyani sovrin qilib qo'ymadi. U to'yida Qashqadaryodagi taniqli futbolchilarni to'plab, o'yin o'tkazdi. To'ydan oldin zamonaviy talablariga mos maydon hozirladi. Uchrashuv arafasida taklif etilgan o'yinchilarning har biriga futbol kiyim-boshlari sovg'a qildi. Yutgan jamoaga ham, yutqizgan jamoaga ham... sovrin qo'ydi. Bo'ldi o'yin, bo'ldi tomosha...

Bugungi kunda o'g'illariga g'ayrioddiy ismlar qo'ygan O'rolni tushunish qiyin. O'sha zamonlarda bizning qulog'imizga erta-yu kech Pavlik Morozovday, Korchaginday, umuman "katta og'a"larimizday yashashimiz kerakligi quyilardi. O'rolning dardi futbol edi. O'zbek o'g'lonining o'zi futbolda "ko'karmagandan" keyin Bloxin, Maradonaga havas qilsa ne ayb? Axir, Amir Temur avlodiga mansub ekanimizni ham unutayozgan edik-ku.

Istiqlol oftobi boy o'tmishimizni yoritdi, ko'z oldimizda yangi dunyo namoyon bo'ldi. Mustaqillikning epkin shabbodalari futbolsevar O'rolning ko'ngliga ham shodlik, g'urur olib kirdi. Vazirlar Mahkamasi futbolni rivojlantirish to'g'risida qaror qabul qilganda uning shodligi cheksiz edi. Futbolchilarimiz 12-Osiyo o'yinlarida g'olib chiqqanda terisiga sig'may quvondi.

– Endi O'zbekiston futbolchilarining jahon chempionatlaridagi o'yinlarini ko'raman, – deydi O'rol o'zbekona soddadillik bilan. – Jahon chempionatlarida futbolchilarmizning Braziliya, Argentina, Angliya jamoalariga qarshi chiroyli o'yinlarini ko'rsam armonim qolmasdi...

– Maradona kimligini bilasanmi? – deya so'raymiz Maradonadan.

- Katta futbolchi, – deydi u tortinib.
- Kelajakda kim bo‘lasan?
- Futbolchi.

Bloxin esa savollarimizga javob berolmay qiynaladi. Bu yoshlarning kelajagi hali oldinda.

“O‘zbekiston futbolchilarini jahon chempionatlarida ko‘rsaydim”, “Maradona, Bloxinni futbol maktablarida o‘qitaman”, “O‘g‘illarimni uylantirsam, to‘yga professional jamoalarni taklif qilib turnir o‘tkazaman”. Bular O‘rolning yaqin kelajakda ro‘yobga chiqaradigan orzulari. Bunga mustaqil davlatimizning “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni, hukumatimizning futbolni rivojlantirish to‘g‘risida qabul qilgan qarorlari kafolat beradi.

Yana xayolga tolaman. Bugun G‘allaorolda, Chiroqchida yoki boshqa tumanning chekka qishlog‘ida futbolga ishtiyoqmand Jalol, O‘rol voyaga yetmoqda. Ishonchim komil, ularning futbolchi bo‘lish orzulari olis bolalik yillarida qolib ketmaydi. Ular mamlakatimiz terma jamoasi safida jahon o‘yingohlarida shuhrat qozonishadi, jahon muxlislarining eng erka futbolchilariga aylanishadi. Argentinaning chekka qishlog‘idagi futbol muxlisi bo‘lgan ota o‘g‘liga ularning hurmati uchun Jalol yoki O‘rol deb ism qo‘yadi. Bizning Jalol, O‘rol argentalik Maradona yoki ukrainalik Bloxin emas. Bu xabarni eshitgan zamon katta sovg‘a-salomlar olib, shaxsiy uchog‘ida Argentinaga yetib boradi. Jalol, O‘rolning otasiga to‘n-do‘ppi kiydiradi...

Biz uzoq yillar xorijlik futbolchilarga havas qilib yashadik. Endi orzularimiz ushala boshladi. Ona Vatanimiz mustaqil, futbolimizni rivojlantirishga barcha asos bor. Imonim komil, o‘zbek futboli yaqin kelajakda bor bo‘yini dunyoga namoyish etadi. Chunki mustaqil yurtimizda futbolchilarning yangi zabardast avlodi voyaga yetmoqda.

GULDASTA KO'TARGAN YIGIT

Ko'chada chiroyli kostum-shim, oq ko'ylak kiygan, galstuk taqqan o'rta yashar erkak shaxdam qadam tashlab kelyapti. Sochlari silliq taralgan, qora tuflisi oftob nurida yaltiraydi. Qo'lida guldasta! Kimdir "qarib quyulmagan" guldastani jazmaniga olgan deb taxmin qiladi. Ayollar uni qayerdadir yosh qiz bilan ko'rganini aytib pichirlashadi. Bu mish-mishlar unga nisbatan uyg'ongan hurmat tuyg'ularini so'ndira boshlaydi...

Ana shu payt ko'chaning ikkinchi tomonidan sochi to'zg'igan, ust-boshi kir-chir boshqa o'rta yashar erkak paydo bo'ladi. Qo'lida butilkalar solingan to'rxalta. Labida sigareta. Undan tamaki tutuni aralash vino hidi anqiydi. Bu oddiy holdek hech kimning u bilan ishi yo'q. Ayollar pista chaqadi. Go'yo hamma erkak shunday yurishi kerakdek.

Salomatligini mustahkamlash maqsadida yugurayotgan yigitlarni ham odamlar tinch qo'yishmaydi. Devday kuchi bor, halloslab yugurishini qara, kuching bilagingga sig'mayotgan bo'lsa, ketmon chop, deya o'zlaricha maslahat berishadi. Lekin ular shundoq ko'cha-ko'yda sigareta tutatib, "yarimta"ni maydalayotgan yigitlarni ko'rishganda jim o'tishadi.

Ahyon-ahyonda ko'cha yuzida uchrab turadigan "Salomatligingda yugurmasang kasal bo'lganingda chop-chop qilasan", degan shiorlar hech kimning e'tiborini tortmaydi. Biroq "Marlboro", "Saraton" sigaretalariga ko'zi tushganda yonini paypaslab qo'yadi, chekkisi keladi. Agar sigareta tugagan bo'lsa tamaki mahsulotlari sotiladigan joyga buriladi. Tijoratchilar do'konlarida chiroyli qilib terib qo'yilgan aroq-konyaklarni ko'rganlar ham uyida spirtli ichimlik bor-yo'qligini bir eslab oladi. Ilojini topsa bir donasini darhol xarid qiladi. Holbuki, bu "zahar"lar ayrim mam-

lakatlarda ma'lum joylardagina sotiladi. Jamoat joylarida chekanlar katta jarima to'lashadi, javobgarlikka tortiladi. Arab davlatlari hududidan hatto spirtli ichimliklar olib o'tish ham taqiqlangan.

Nega bizning ko'chalarimizda ichish ham, chekish ham, bu mahsulotlarni sotish va targ'ib qilish ham mumkin. Sigareta tutatish, aroq ichish insonga martabami? Yaxshi kiyinib, guldasta ko'tarib yurish erkakka yarashmaydimi? Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarish kundalik ehtiyoj-ku. Har xil sigareta, aroqlarni ko'z-ko'z qilish o'rniga sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi shiorlarni ko'paytirish burchimiz emasmi? Ota-bobolarimiz tanglayini sigareta yo aroq bilan ko'tarishmagan-ku. Biz Alpomish-Barchinoylar avlodimiz-ku.

Kolumbda bor alamim manim, deb yozgandi hurmatli shoirimiz. Yurtdoshlarimizning ham sog'ligini yemirayotgan tamaki mahsulotlari Kolumb 1492-yili Amerikani kashf qilgandan keyin dunyoga keng tarqalganini hisobga oladigan bo'lsak, bu tashbehni qo'llash juda o'rinlidir. XVI asrdayoq Janubiy Amerikada o'sadigan tamaki o'simligi Ispaniyada ekila boshlandi. Keyin Yevropaning boshqa davlatlariga tarqaldi.

Tamakining zararli oqibatlarini odamlar yaxshi bilishgan. Shu bois avval boshdanoq tamakini keng ko'lamda ekishga, chekishga qarshi qat'iy choralar ko'rishgan. Masalan, Angliyada kashandalar o'lim jazosiga hukm qilingan, Turkiyada ashaddiy chekuvchilar qoziqqa o'tqazilgan, Germaniyada burni yoki labi kesilgan, Rossiyada darralangan. Ammo "qozi"ning o'zi kashanda bo'lgach, tamaki tarqalishiga qarshilik ko'rsatarmidi. O'zi ashaddiy kashanda bo'lgan Pyotr I 1697-yili tamakini cheklash bo'yicha davlat tomonidan chiqarilgan barcha qonunlarni bekor qildi. Natijada, Rossiya bo'ylab yashin tezligida tamaki yetishtirish va uni qayta ishlash ko'paydi, o'z-o'zidan ravshan, chekuvchilar soni ham oshdi. Avval chorizm, keyin sobiq ittifoq tasarrufida 130 yildan ortiq bo'lgan O'zbekistonimizda kashandalik shu yo'sinda ommaviylashdi.

Sigareta tutatilganda undagi issiqlik 600–900 darajagacha ko‘tariladi va 200 dan ortiq zararli modda hosil bo‘ladi. Ular nikotin, is gazi, ammiak, vodorod sulfid, benzopirin, poloniy, qo‘rg‘oshin, kaliy va hokazolar. Bu moddalar yurak-qon tomiri, nafas olish tizimini, oshqozon-ichak, umuman, ichki a‘zolari ish-dan chiqaradi. Yurak xastaligi, sil, saraton va boshqa kasalliklar bilan chalinishni tezlashtiradi.

Sigareta tutunining 30 foizini xavfli gazlardan bo‘lgan nikotin tashkil etadi. Nikotin xavfli modda ekanini isbotlash uchun tadqiqotlarga murojaat etamiz. Chorak tomchi nikotindan quyon, yarim tomchisidan it o‘ladi. 2–3 tomchi (50–100 mg) nikotin esa odamni nobud qiladi. Kunda 20–25 dona sigareta chekadiganlar shuncha miqdorda nikotin yutadi (har bir sigaretada 6–8 mg nikotin bo‘lib, shundan 3–4 mg qonga o‘tadi). Ayrim kashandalar 25 ta emas, 50 dona sigareta chekdim hech narsa bo‘lgani yo‘q deb, o‘zlaricha ilmiy yechimlarni inkor etishga urinishadi. Darhaqiqat, shuncha sigareta chekkan kimsaga nima uchun nikotin ta‘sir qilmaydi? Chunki ular sigaretani birin-ketin, tanaffus bilan chekishadi. Boshqacha aytganda, zaharli og‘u qonga oz-ozdan o‘tadi, ichki a‘zolar nikotinni bir qadar zararsizlantirishga ulguradi.

Shu o‘rinda Fransiyaning Nissa shahrida bo‘lib o‘tgan “Kim ko‘p chekadi?” musobaqasi oqibatlarini eslashimiz joiz. Bu “musobaqa”da 60 dona sigaretani ketma-ket chekib g‘olib chiqqan yigit o‘sha zahoti o‘lgan. Undan keyingi “o‘rin”larni egalaganlar esa og‘ir holatda shifoxonaga yotqizilgan. Angliyada shunga o‘xshashroq hodisa qayd etilgan. Bir kishi kechasi qiyin ishni bajarayotib 54 dona sigareta chekkan va unga ertalab tibbiy yordam ko‘rsatilishiga qaramasdan dunyodan ko‘z yumgan.

Tamaki mahsulotlarining zararini to‘liq bilmaslik kashandalik ko‘payishining bosh omili deyish mumkin. Negaki, tadqiqotlar ziyolilarning o‘rta va boshlang‘ich ma‘lumotga ega bo‘lgan kishilardan kamroq chekishini ko‘rsatadi. Masalan, Moskvada aqliy mehnat bilan mashg‘ul xodimlardan 37,9, Kaunasda 30,6

foizi chekarkan. Lekin shu shaharlardagi ishchilarning mos ravishda 60,1 va 49,8 foizi kashandalikni odat qilishgan.

XIX asr oxirida dunyoga taniqli 124 nafar namoyanda o'rtasida so'rov o'tkazilgan. Shundan atigi 12 nafari chekarkan, 12 nafari faqat ish vaqtida nomiga sigareta tutatib qo'yarkan. Agar dunyo miqyosida erkaklarning 40, ayollarning 30 foizi chekishini hisobga oladigan bo'lsak, namoyandalar o'rtasidagi foiz miqdori juda kam ekanligi yaqqol ko'rinadi.

Kashandalar ko'payishining yana bir omili tamaki mahsulotlarini reklama qilishdir. So'rovlar 45 foiz chekuvchi sigareta tutatishni qiziqish uchun boshlaganini aytishgan. Boshqa bir so'rovda 41 foiz chekuvchi kattalarga taqlid qilib sigareta tutatganini bildirishgan. Ha, 20 yoshgacha chekmaganlar undan keyin sigareta tutatishga odatlanishi qiyin. Demak, bolalarni "ko'k alvasti" makridan asrash asosiy muammolardan biridir.

Bundan 100 yil muqaddam insoniyat oldida "Tamaki va ayol" muammosini yechish ko'ndalang bo'lgandi. Hozir bu muammo yo'q. Chunki ayollar allaqachon chekishni odat qilishdi. 50 yilcha ilgari "Tamaki va yoshlar" muammosini hal qilish ustida bosh qotirildi. Hozir bu muammo ham yo'q. Chunki yoshlarni ham sigareta balosidan asray olmadik. Endi "Tamaki va bolalar" muammosini yechish oldimizdagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Agar bu muammoni o'z vaqtida bartaraf eta olmasak, kelgusida qarshimizda "Tamaki va zurriyot" atalmish bundandamurakkabroq vazifani yechishimizga to'g'ri keladi. Angliyada nobud bo'lgan 18 ming chaqaloqning o'lim sabablari o'rganilgan. Shundan bir yarim minggining onasi chekuvchilar bo'lgani aniqlangan. Onalari chekkani uchun bolalarning boshqa turli kasalliklarga tezroq chalinishi tadqiqotlarda qayd etilgan.

Salomatlik kushandasi bo'lgan tamaki mahsulotlarini reklama qilish ko'plab mamlakatlarda taqiqlangan. Xususan, Rossiyada 1995-yil Prezident farmoniga ko'ra matbuot vositalari orqali tamaki mahsulotlarini targ'ib qilish taqiqlab qo'yildi. Hozirgi kunda nafaqat reklama taqiqlanmoqda, balki korxonalar o'zlarining tamaki mahsuloti zararli ekanini eslatuvchi ko'rsatuvlar tayyorlash-

ga majbur etilyapti. AQSH Prezidentining 1995-yil avgust oyida chiqargan farmoniga binoan tamaki ishlab chiqaruvchi korxonalar antireklamaga bir million dollar ajratishlari belgilandi. Xullas, dunyo miqyosida sigareta chekish taqiqlangan korxonalar, shaharlar, o'lkalar ko'payib bormoqda.

Respublikamizda ham ma'lum davrlarda kashandalikni tugatish borasida amaliy ishlar qilingan. Lekin... shoh ko'chalarimizda ham, maktabga tutash ko'cha yuzlarida ham sigareta sotilyapti. Tijoratchilar savdo rastalarini turli-tuman sigaretalar bezayapti. Bu bolalar ko'z o'ngida ro'y berayotgani achinarli holdir.

“Binoda chekish mumkin emas”, degan shiorlar keyingi paytda tojdor turnaday yo'qolib boryapti, desak mubolag'a emas. Chekishni taqiqlovchi, man etuvchi qaror va e'lonlarning yo'qligi, tamaki mahsulotlarining zararli ekanligini isbotlovchi ko'rsatuvlar, eshittirishlar, maqolalar, ro'znomalar, kitoblarning kamligi mamlakatimizda kashandalar sonini oshirishdan boshqa narsaga xizmat qilmaydi.

Yomon odatlardan yana biri spirtli ichimliklar iste'mol qilishdir. Fan bu zahri qotil qadim zamonlarda uzumning vatani bo'lgan O'rta dengiz va Qora dengiz bo'ylaridagi mamlakatlarda tayyorlana boshlagan deb, taxmin qiladi. Tarixiy manbalarda misrliklar piramidalar qurilmasdan ilgari ham sharob, pivo tayyorlashni bilishgani bitilgan.

Kayfni vaqtincha chog' qiluvchi spirtli ichimliklar ko'plarga yoqib qoldi, unga ehtiyoj oshdi. Natijada, uni faqat uzumdan emas, boshqa meva, don-dundan tayyorlash o'zlashtirildi. Arab kimyogari Razez esa sof spirtni hosil qilish usulini birinchi bo'lib topdi. Uni “al kak gol”, ya'ni “narsaning eng nozik, eng sof mohiyati” deb nomladi. Kimyogarlar “alkagol” tayyorlashni o'rganishgandan keyin unga “spirt” nomini berishdi. Lotin tilida “spiro” – “nafas olayapman” degan ma'noni anglatadi. Chunki u vaqtda spirtga xilma-xil ajoyib sifatlar berilardi. Go'yo spirt kishilar salomatligini mustahkamlash, kasalliklarni yengishga qodir ilohiy kuch edi. Spirtning suvga aralashtirilgani “aka vita”, ya'ni “obihayot” deb nomlangani ehtimol shundandir. Endilikda biz spirtning barcha

salbiy oqibatlarini ham bilamiz. Shu bois odamlar hozir spirtni “oq ajdar”ga qiyoslashadi.

Albatta, etil spirtining sanoatda, tibbiyotda va boshqa sohalarda keng qo'llanib mushkulimizni yengillashtirayotganini inkor qila olmaymiz. Ammo iste'mol qilish, ehtiyot choralari ko'rilmasdan spirt bilan ishlash mutlaqo zararlidir. Alkogolning tirik hujayralarga, pushtga zararli ta'sir etishiga bir misol keltiramiz. Samogon tayyorlanadigan saroyning chordog'idagi inkubatorga 160 ta tuxumni jo'ja ochirish uchun qo'yishgan. Kunlar o'tgach, atigi 78 donasidan jo'ja ochib chiqqan. Shundan 40 ta jo'ja tez o'lgan, 25 tasi mayib-majruh bo'lib qolgan, atigi 13 ta jo'ja sog'lom rivojlangan.

Fransuz vrachi Demme 28 yil mobaynida 10 ta alkogolga ruju qo'ygan oilani kuzatgan. O'tgan davrda ular 57 nafar farzand ko'rishgan. Ulardan 25 nafari bir yoshga to'lmasdan vafot etgan, 23 nafari tuzatib bo'lmaydigan kasalliklarga chalinishgan, atigi 9 nafar bola sog'lom katta bo'lgan.

Alkogol asab sistemasi, yurak-qon tomirlari, oshqozon-ichak yo'llari, umuman ichki a'zolarini ishdan chiqaradi. 1975-yili Butunjahon sog'liqni saqlash jamiyati e'lon qilgan bitta ma'lumotga diqqatingizni tortamiz. Yilda bir kishiga 24,66 litr alkogol iste'mol qilinadigan Fransiyada jigar sirrozidan o'lish yiliga har bir kishisiga 4,16 litr spirtli ichimlik to'g'ri keladigan Finlyandiyaga nisbatan 10 barobar ko'p ekan. Boshqa kasalliklar bo'yicha ham bunday ma'lumotlarni davom ettirish mumkin.

Bizni alkogolning sport natijalariga ta'siri qiziqtirishi tabiiydir. Besh nafar mergan miltiqdan ichkilik ichmasdan 250 metr uzoqlikdagi nishonga 10 tadan o'q uzgan. O'qlarning 86 foizi nishonga tekkan. Ularga juda kam miqdorda alkogol berilgan. Endi merganlar otgan o'qning 20 foizigina nishonga tekkan. Bitta o'quv yurtida jismoniy quvvati bir xil bo'lgan o'quvchilar ikki guruhga bo'lingan. Bir guruhdagi o'quvchilarga pivo berishgan va ikkala guruhni tog'ni zabt etishga yo'llashgan. Pivo ichgan o'quvchilarning barchasi ortda qolgan.

Alkogolni hamma sotib olishi mumkinligi hamda bu illatga jiddiy qarshi kurashilmayotgani spirtli ichimliklarni iste'

mol qilish natijasida vujudga keladigan kasallikning keng tarqalishiga bosh sababdir. Insoniyat ichkilik paydo bo'lgandan buyon unga qarshi kurashgan. Ehtimol ichkilikbozlikka qarshi chiqarilgan birinchi qonunni Xitoy imperatori Vu Vong miloddan 1220 yil ilgari qabul qilgan bo'lsa ajabmas. Bu farmonga ko'ra ichkilikbozlik bilan qo'lga tushgan kishilar o'limga hukm etilgan. Hindistonda alkogoliklar o'lgunicha qaynab turgan vino ichishga majbur qilingan yoki peshonasiga ichkilik idishi tasviri tushirilgan tamg'a bosilgan. Yunonistonda ham alkogoliklar quturgan hayvonga tenglashtirilib, darhol o'ldirilgan. Angliyada ichkilikbozga bo'yinturuq osib, sazoyi qilib, ko'chama-ko'cha olib yurilgan. Qur'oni karim va Hadisi sharifda ham kayf beruvchi ichimliklarni ichish taqiqlangan.

Bizning asrimizda alkogoliklarga qarshi kurashda turli usullar qo'llanilmoqda. Shulardan biz "Quruq qonun" deb nom olgan usulga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Bunda ichkilikbozlarni jazolashga emas, balki ularni ko'p ichishga imkon bermaydigan shart-sharoitlarni yaratish maqsadida qarorlar chiqarilgan. "Quruq qonun" birinchi bo'lib 1919-yili AQSHda tadbiq etildi. Sobiq ittifoqda ham shunday qonunlar qabul qilindi. Afsuski, ko'p o'tmay ularning ayanchli hosili "yig'ildi". Chunki **ichkilikni tusaydigan kishilar bor ekan, hali aholi ongida spirtli ichimliklarga nisbatan salbiy munosabat kamol topmagan ekan, alkogolli ichimliklarni ishlab chiqarish va ular bilan savdo qilishni taqiqlab, ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi.** Kashandalik va ichkilikbozlikni kamaytirish, butunlay tugatish uchun bosqichma-bosqich amaliy ishlarni izchil bajarish zarur.

Kashandalik hamda ichkilikbozlikning zararli oqibatlari bilan bir qadar tanishishimiz ham tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklar keng sotiladigan joylarda jismoniy tarbiya va sportni ko'ngildagidek rivojlantirmasdan sog'lom avlodni tarbiyalash mumkin emas, degan xulosa chiqarishimizga asos beradi. Darhaqiqat, jismoniy tarbiya va sport hech qachon tamaki-spirt bilan birga

bo'la olmaydi. Ular olov va suvday bir-biriga qarama-qarshi tushunchalardir.

Ichkilikbozlik va sigareta tutatish havasdan, taqliddan boshlanadi. Demak, ishni yoshlarni ichishga va chekishga havasini uyg'otadigan omillarni kamaytirishdan boshlamog'imiz kerak. Birinchi navbatda qonun yo'li bilan spirtli va tamaki mahsulotlarini matbuot vositalarida (hatto filmlarda, kliplarda ham) ko'z-ko'z etishni, shahar ko'chalarida, jamoatchilik joylarida chekib yurishni butunlay taqiqlash lozim. Aksincha, ularning o'rnini spirt va sigareta mahsulotlarining antireklamasiga erishmoq darkor. Bolalar muassasalari, o'quv yurtlari, shifoxonalar atroflarida, ko'cha yuzlarida spirt va tamaki mahsulotlari bilan savdo qilishni cheklash zarur.

Bozor iqtisodiyoti davrida tijorat do'konlari ko'paydi. Ularda bolalar tamaki va spirtli ichimlik mahsulotlari bilan savdo qilishmoqda. Bu hol bolalarga tibbiy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham zararlidir. Shu bois bolalarning, o'smirlarning, yoshlarning bunday mahsulotlar bilan savdo qilishini taqiqlash kerak. Bundan tashqari, bu mahsulotlarning kattalar tomonidan yoshlarga sotilishiga ham yo'l qo'ymasligimiz zarur.

O'quv yurtlarida kimyo fanidan etil spirti va nikotin xususiyatlari bo'yicha saboq berilganda, ularning ijtimoiy va ma'naviy zarariga bag'ishlangan darslar o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday darslarni mahallalarda, tashkilotlarda, xo'jaliklarda ham o'tkazish kerak. Matbuot vositalarida muntazam ravishda bu illatlarning salbiy oqibatlariga bag'ishlangan materiallar berishni rejalashtirish darkor.

Sport inshootlari, sog'liqni saqlash maskanlari va o'quv yurtlarining hududlarida hozirdanoq chekish va spirtli ichimliklar iste'mol qilishni batamom taqiqlash mumkin. Keyinchalik hududni bosqichma-bosqich mahallalarga, dahalarga, tumanlarga... asta-sekinlik bilan kengaytirib borish lozim.

Jismoniy mashg'ulot va sog'lomlashtiruvchi sport bu illatlarga qarshi kurashda eng sinalgan vositadir. O'z salo-

matligini bebaho boylik deb bilgan kishilar hamisha sog'liqqa putur yetkazuvchi narsalardan o'zlarini tiyishadi hamda jismoniy mashqlarni muntazam bajarishadi. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunda belgilanganday aholining jismoniy mashq va sog'lomlashtiruvchi sport bilan shug'ullanishiga yanada ko'proq sharoit yaratishimiz, ommaviy musobaqalarni ko'paytirishimiz kerak.

Gul – nafasat ramzi. Sport musobaqalari paytida gulning bundan-da ulug'vorroq tushunchaga ega ekanligini ko'p bor his qilganman. Axir, qishda o'tkazilgan musobaqalarda ham sovrindorlarga guldasta tuhfa etiladi. Darhaqiqat, aqli tiyran, ruhan tetik, jismonan sog'lom kishilarga guldasta juda munosibdir. Menimcha, gul keng ma'nodagi barkamollik ramzidir.

...Ko'chada chiroyli kostum-shim, oq ko'ylak kiygan, galstuk taqqan o'rta yashar erkak shaxdam qadamlar tashlab kelyapti. Qo'lida guldasta. Unga bu guldastani musobaqada sovrindorlar qatoriga kirgani uchun taqdim etishgan. Guldasta unga shu yoshida ham salomatligini saqlab qolgani uchun berilgan bir mukofotdir. Ehtimol, u gullarni onasiga, umr yo'ldoshiga, qiziga sovg'a qiladi. Men shunday kishilarga havas ko'zi bilan qarayman. Shunday kezlarda to'rxaltada butilka ko'targan kimsalarning kamayishini, qo'llariga guldasta tutgan erkaklarning ko'payishini orzu qila boshlayman.

Mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish yurtdoshlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzining to'liq qaror topishiga bevosita bog'liqdir. Kashandalik, ichkilikbozlik va boshqa illatlarga nisbatan aholining salbiy munosabatlarini shakllantirmasdan turib, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish qiyin. Shu bois tamaki va spirtli ichimlik mahsulotlarini kamaytirish, kashandalik va ichkilikbozlik kasalliklarini davolash, mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish – O'zbekistonimiz buyuk kelajagini ta'minlash demakdir.

CHEMPIONLIKNING OLIS VA MASHAQQATLI YO'LI

Rustam Qosimjonov 1979-yil 5-dekabrda Toshkentda tug'ilgan. 5 yoshdan shohmot o'ynaydi. Poytaxtimizdagi 76-maktabda o'qigan, O'zbekiston milliy universitetida tahsil olgan. Yoshlar o'rtasida O'zbekiston (1990) va Osiyo (1994, Do'ha) chempioni, jahon birinchiligida ikki bor bronza (1994, Seged; 1995, Guarpuova) va kumush (1999, Yerevan) medali sohibi. Kattalar o'rtasida O'zbekiston (1997, 2000) va Osiyo (1998, Tehron) chempioni, jahon kubogida 2-o'rinni egallagan (2002, Haydarobod). Jamoa tarkibida Osiyo shaharlari klublari chempionati g'olibi (1996, Dubay), Osiyo chempioni (1999, Shenyang), jahon shohmot olimpiadasida shaxsiy hisobda bronza medali bilan taqdirlangan (2000, Istanbul). Ko'plab nufuzli xalqaro musobaqalarda g'olib chiqqan.

Xalqaro grossmeyster (1997). "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni (1998), "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni (2000) va Amir Temur ordeni (2004) bilan mukofotlangan.

Shohmot bo'yicha 17-jahon chempioni (2004-yil 13-iyul, Tripoli).

Bo'ladigan bola boshidan ma'lum, deydi xalqimiz. Rustam bolaligidan o'ta qiziquvchanligi bilan ajralib turardi. U hali maktabga bormasidanoq o'qish-yozishni o'rganib olgandi. Bog'chaga yo'l olarkan, zerikib qolsam, misol-masalalarni yecharman deb Xurshid akasining arifmetika kitobini olib ketardi. Muhimi, yillar o'tsa hamki kitob o'qishga bo'lgan qiziqishi kamaymadi, aksincha, kuchaydi. Buni Rustamning jahon chempioni bo'lganidan keyin noq muxbirning savollariga bergan javoblaridan bilishimiz mumkin.

– Shohmotdan tashqari yana nimalarga qiziqasiz? – deya Rustamga savol berdi muxbir.

– Katta qiziqish bilan har xil tillarda juda ko‘p kitob o‘qiyman, – deya javob qaytargan Rustam muxbirning qiziqishini yanada oshirdi.

– Qaysi tillarda?

– Asosan o‘zbek, rus, ingliz, nemis tillarida.

Ha, til bilgan el biladi, dunyoni taniydi. Rustamning ko‘p tillarni bilishi shohmotdagi dadil parvozigaga zamin hozirladi. Umuman olganda, u bolaligidan ko‘p sohalarga qiziqardi va o‘zini jalb etgan narsani kitoblardan o‘qib, chuqur o‘rganardi. Bolaligidan matematikaga qiziqqani uchun gaplariga raqamlar qo‘shilardi: “Falonchi aka o‘n yoshda, mendan to‘rt yosh katta”, “manavi daraxtning balandligi o‘n metrcha bo‘lsa kerak”, “bekatgacha besh daqiqada chiqamiz...” Matematikaga bo‘lgan qiziqishi shohmotni tez o‘rganishiga yordam berdi.

Endi u shohmotni o‘rganishga kirishdi. Yutqazsa ham qayta-qayta shohmot o‘ynardi. 2-sinfni tugatishi arafasida u o‘qiyotgan maktabga shohmotga ixtisoslashtirilgan 15-bolalar-o‘smirlar sport maktabi joylashtirildi. Rustam birinchilardan bo‘lib shohmot to‘garagiga yozildi. Bolalar murabbiyi Aleksandr Grushevskiyga Rustamning xotirasi kuchliligi, mehnatsevarligi, intizomi yoqib qoldi. Yozgi ta‘til boshlangach, ustoziga unga N. Juravlyovning “Qadamma-qadam” (“Шаг за шагом”) kitobini berib, aniq vazifalarni topshirdi. Kuzda uy vazifasini Rustam a‘lo darajada bajarganini ko‘rib, ustozining mehri tovlandi. Shohmot maktabi uzoqroqqa ko‘chganida ba‘zan ustoz Rustamni uyidan o‘zi olib ketib, mashg‘ulotlar tugagach o‘zi olib kelib qo‘yardi. Agar biror sabab bilan Rustam mashg‘ulotga qatnasha olmasa, ustoz u bilan uyida alohida shug‘ullanardi. Bu harakatlar samarasini berdi, Rustam 11 yoshida yoshlar o‘rtasida O‘zbekiston chempioni bo‘ldi.

Rustam shu davrda maktabda ham barcha fanlardan a‘lo baholarga o‘qidi. Jamoat ishlarida faol qatnashdi. A‘lochi va faol o‘quvchi sifatida ikki bor “Artek” bolalar oromgohida dam olib

qaytdi. Tinib-tinchimas Rustam geografiyaga qiziqib qoldi. U jahon xaritasiga qarab, istagan mamlakatning maydoni qanchaligini va aholisi sonini yoddan ayta olardi. Qizig'i, yillar o'tib Rustam xaritada ko'rgan ko'plab mamlakatlarda bo'ldi, shohmot sharo-fati bilan yana ko'plab davlatlarga borishi turgan gap.

Shuncha qiziqishlari bo'lishiga qaramay Rustam shohmot bilan astoydil shug'ullandi. Endilikda u ustozni tavsiyasiga ko'ra tajribali murabbiy Sergey Pinchuk mashg'ulotlariga qatnadi, o'yinlardagi vaziyatlarni qunt bilan tahlil qilish va musobaqalarda qatnashish uning malakasini oshirdi. Yoshlar o'rtasida Osiyo chempionligini va jahon birinchiligi bronza medalini qo'lga kiritdi.

Yosh shohmotchining xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari nazarga tushgan vaqtda Yurtboshimiz unga kompyuter sovg'a qildi. Kompyuterda shug'ullanish Rustamni parvozga chog'ladi. Uch yil ichida xalqaro grossmeyster talabini bajardi, qator nufuzli musobaqalarda g'olib chiqdi. Muvaffaqiyat qozonayotgan Rustam muntazam ravishda rag'batlantirib borildi.

Ba'zan Rustamning muvaffaqiyatlari siri nimada, deya o'ylayman. To'g'ri, Rustam o'ta zehnlilik, mehnatsevar, tirishqoq, maqsad yo'lida qat'iyat bilan olg'a intiladigan irodali shohmotchi. Lekin uning el-yurt oldidagi burchini teran anglashi, ustozlariga hurmat saqlashi, ko'rsatilgan g'amxo'rliklarni chuqur his qilishi g'alabalarining asosiy omili desak yanglishmagan bo'lamiz. Fikrimizni Rustamning jahon chempioni bo'lganidan keyin Prezidentimiz Islom Karimovga yo'llagan maktubidan olingan quyidagi jumlar ham tasdiqlaydi:

“Men bu yutuqni ustozlarimning mehnati va albatta, Sizing bevosita e'tibor va g'amxo'rligingiz natijasi deb bilaman. Va bu menga doim kuch-quvvat beradi. Shuning uchun ham bugun men emas – O'zbekiston chempion bo'ldi, jahon shohmot tojiga men emas – butun o'zbek xalqi sazovor bo'ldi deb hisoblashingizni so'rayman”.

Chempionlik yo'li olis va mashaqqatli bo'ldi. Ayniqsa, teran aql-zakovat, kuchli jismoniy tayyorgarlik va yuksak ruhiy bardamlik

talab qiladigan shohmotda chempion bo'lish qiyin. Shu bois 1886-yildan buyon jahon chempionligi uchun musobaqalar o'tkazilishiga qaramay dunyoda atigi 19 nafar shohmotchi jahon chempioni degan yuksak unvon bilan sharaflangan. Shohmot qirollarining o'n yettinchisi bizning faxrimiz Rustam Qosimjonovdir. Rustam ham bu unvonga erishish uchun salkam 20 yil tayyorgarlik ko'rdi, musobaqalashdi, qancha dovonlardan o'tib, olg'a intildi.

Birgina Tripolida o'tgan jahon chempionatini esga olaylik. Chempionatga 128 nafar sara shohmotchi kelgandi. Ularning ko'pchiligi chempionlikka asosiy da'vogar sanalardi. Rustam kostarikalik Aleksandro Ramiris va eronlik Gaem Magatini yutgach, nomdor grossmeysterlar bilan bahsga kirishdi. Yevropa chempioni, oxirgi jahon chempionati finalchisi Vasiliy Ivanchuk, Vengriyaning besh karra chempioni Zoltan Almashi, Rossiyaning iqtidorli grossmeysteri Aleksandr Grishchuk, Bolgariyaning eng kuchli shohmotchisi Veselin Topalovni ketma-ket mag'lubiyatga uchratib, finalga chiqdi. Hal qiluvchi o'yinda angliyalik Maykl Adamsdan ustun keldi. Xullas, Rustam 2004-yil 18-iyundan 13-iyulgacha, ya'ni 26 kunda bir-biridan mas'uliyatli 28 ta o'yinda muvaffaqiyatli dona surdi. Bunaqasi hali shohmot tarixida bo'lmagandi.

– **Maqsad yo'lida muvaffaqiyatsizlikka uchrasangiz tushkunlikka tushmang, yana qat'iyat bilan olg'a intiling, shunda natijalar o'z-o'zidan keladi, orzularingiz ushaladi,** – deydi Rustam jurnalistlar bilan suhbatda.

Rustam Qosimjonov bu so'zlarining to'g'riligini amalda isbotladi.

O'ZBEGIM BAHODIRI

Muhammadqodir Abdullayev 1973-yil 15-noyabrda Andijonda tug'ilgan. 13 yoshidan boshlab boks bilan shug'ullanadi. Murabbiylari – O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustozlari M. Qo'chqorov va A. Razmaxov. Ko'p karra mamlakat chempioni, ikki martadan Markaziy Osiyo o'yinlari (1995, Toshkent; 1997, Almati) va Osiyo (1997, Kuala-Lumpur; 1999, Toshkent) chempioni, Osiyo o'yinlari g'olibi (1998, Bangkok), jahon kubogi sohibi (1998, Chong-Ging), jahon chempioni (1999, Xyuston), Olimpiya chempioni (2000, Sidney).

“O'zbekiston iftixori” (1998), “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi” (2000) faxriy unvonlari, “Elyurt hurmati” ordeni (1999) va “Shuhrat” medali (1996) bilan mukofotlangan.

Sherlar hayotiga oid bir hujjatli filmni ko'rgandim. Ajab, arslonlar orqa oyoqlarida turishib, old oyoqlarini bokschilarga o'xshab harakatlantirib bir-birlari bilan jang qilishar ekan. Negadir, bokschilar haqida o'ylaganimda shu lavhalar ko'z oldimga keladi. Axir, ringga g'alaba qozonish uchun tushgan bokschining vujudidan ham arslon shiddati yog'iladi.

1974-yili nomdor bokschimiz Rufat Risqiyev jahon chempioni bo'ldi. Mutaxassislar uning ringdagi chaqqon va dadil harakatlardan hayratga tushishib, Rufatni “Toshkent yo'lbarasi” deb atay boshlashdi. Bokschimiz dovrug'i dunyoga ketgan o'sha kezlarda yurtimizdagi har bir ota o'z o'g'lining “Toshkent yo'lbarasi”day shuhrat qozonishini orzu qilgan desak, mubolag'a emas. Muhammadyoqub aka ham bir yoshli o'g'li Muhammadqodirni qo'lga ol-

ganida, ehtimol uning ko'nglidan ham shunday orzular kechganidir: O'g'lim bokschi bo'ladi, qachondir olamshumul g'alaba qozonadi, uni hamma "Andijon arsloni" deb sharaflaydi...

Har holda, Muhammadyoqub aka yolg'iz o'g'lini boks to'garagiga qabul qiladigan yoshga yetishi bilan "Spartak" jamiyatiga yetaklab borgani rost gap. "O'g'limni sinab ko'rib, undan bokschi chiqish-chiqmasligini aytsangizlar", – deya murabbiydan iltimos qildi. Mehribon murabbiy Turdiali O'zg'unov unga bir haftadan keyin xabar olishini aytdi. Shu vaqt ichida u Muhammadqodirga har xil topshiriqlar berib, tashqariga chiqib ketardi va derazadan yangi shogirdining mashqlarini kuzatardi. Besh vaqt namozni kanda qilmay o'qib, qat'iy intizomga o'rgangan Muhammadqodir boksdagi tartib-qoidaga tezda ko'nikdi. U mashg'ulotlarga o'z vaqtida kelar, ruxsat bo'lmaguncha ketmasdi. Murabbiy bergan topshiriqlarni to o'zi kelib to'xtatmaguncha berilib bajarardi. Shu bois murabbiy bir haftadan keyin otasiga o'g'lidan bokschi chiqishini aytdi. Bu Muhammadqodirga bokschilar beorom kunlari boshlanganidan darak edi.

U bokschilarga xos shunday og'ir va sharafli yo'lni tanladi. Ba'zan hakamlar adolatsizligi qurboni bo'ldi, ba'zan o'zi xatolikka yo'l qo'ydi. Lekin hech qachon umidsizlikka tushmadi, har bir "jang"dan to'g'ri xulosa chiqardi, ertasi kuniyoq yana mashqlarga zo'r berdi. Sharoit taqozosiga ko'ra Shuhrat Abdullayev, Lochinbek Qo'chqorov qo'l ostida shug'ullandi. Andijon olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtiga o'qishga kirdi, iqtidorli murabbiylar Mars Qo'chqorov va Aleksandr Razmaxov rahbarligida shug'ullana boshladi.

Odatda sportchilarning jismoniy tayyorgarliklari haqida ko'p gapiramiz. Lekin ularning ruhiy tayyorgarliklariga esa e'tiborimizni qaratmaymiz. Holbuki, nufuzli musobaqalarda jismonan sog'lom va ruhan barkamol sportchilargina g'alaba qozonishadi. Muhammadqodir Atlanta olimpiadasiga ketish oldidan qabrison yoniga o'zi ekan, hosilga kirayotgan o'riklarni qirqib tashlab, o'rniga terak qadashganini ko'rganda jahli chiqdi, o'ylamasdan bir-ikki-

tasini sindirdi. Atlantada birinchi “jang”dayoq mag‘lubiyatga uchradi. Budapeshtdagi jahon chempionatiga ketish oldidan vokzalga shoshayotgani uchun otasi “yo‘lovchilarni olib ketaylik” deyishiga qaramasdan mashinani to‘xtatmadi. Yana mag‘lubiyat. Keyinchalik otasi unga “niholni sindirgan, yo‘lovchini olmagan vaqtingdayoq, ko‘nglim g‘ash bo‘lgandi, yutqazishingni bilgandim”, dedi. Jahon kubogiga ketish oldidan Muhammadqodir otasining ra‘yiga qaradi. Qancha joyga kirishib, duoyi fотиha olishdi. Qancha tanish-notanishlarni manziliga olib borib qo‘yishdi. Shunga qaramay, u otasidan so‘radi:

– Ko‘nglingiz g‘ash bo‘lmasin, tilagingizni ayting, bajarib ketay.

– Yo‘ling oq, o‘g‘lim, omad yor bo‘lsin, – deya duo qildi ota.

Xitoyning Chong-Ging shahrida o‘tgan jahon kubogiga kuchlilarning kuchlisi to‘plandi. Muhammadqodir birinchi “jang”ga ketar ekan o‘yladi: “Agar musobaqada g‘olib chiqsam, shu ringga tiz cho‘kib, Ollohga hamdu sanolar o‘qiyman”. U finalgacha raqiblari qarshiligini shiddatli “jang”larda sindirishga muvaffaq bo‘ldi. Finalda yana bir og‘ir sinovdan o‘tdi. Chunki unga oxirgi raund oldidan kubalik Lorenzo Aragonga 8:12 hisobida yutqazayotganini aytishdi. Bir daqiqalik tanaffusda nimalar haqda o‘yladi, bu bizga qorong‘u. Ammo so‘nggi raundga chiqar ekan “Olloh meni sharmanda qilma”, deya “jang”ga tashlandi. Endi uni kubalik nomdor bokschi to‘xtatib qolishga qodir emas edi. Ketma-ket berilayotgan aniq zarbalar nishonga tegardi, hisob yurtdoshimiz foydasiga o‘sib borardi. Bong. Hisob 17:13. Hakam Muhammadqodirning g‘olib chiqqanini bildirdi. U ringga tiz cho‘kib, Ollohga hamdu sanolar o‘qidi. Aynan shu g‘alaba uni yangi “cho‘qqi”lar sari yetakladi.

O‘sha yil Bangkokda bo‘lgan Osiyo o‘yinlari finalida ham Muhammadqodir mahorat ko‘rsatdi. Negaki, unga mezbon – tailandlik bokschi qarshi chiqqandi. Zal o‘z vatandoshini qo‘llab-quvvatlayotgan muxlislar hayqirig‘idan larzaga kelardi. Bunday shovqin-suronda esankirab qolish hech gap emas. Jussasi kich-

kina, qotmadan kelgan Muhammadqodir ohista ringga ko'tarildi, jangovar holatga kirdi, birdan yelkador, bo'ychan ko'rinish oldi, vujudidan arslon shiddati yog'ilardi. Ha, davralarda muloyim ko'rinadigan Muhammadqodir ringda raqibiga hamlaga tayyorlanayotgan arslonga aylanadi. Mazkur "jang"da ham u tashabbusni o'z qo'liga oldi, raqibiga imkoniyat qoldirmadi.

Xyustonda o'tkazilgan jahon chempionatining ilk uchrashuvida Muhammadqodir rossiyalik kuchli bokschini yengdi. Ikkinchi "jang"da amerikalik Rikardo Uilyamsqa qarshi ringga chiqdi. Yana zal hayqiriqlarga ko'mildi. "Vaqtli final" nomini olgan bu uchrashuv hamyurtimiz foydasiga hal bo'ldi. Biroq oldinda hali biri-biridan og'ir uchta "jang" bor edi. U bu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, jahon chempioni degan yuksak unvon egasiga aylandi. Endi uning boksdagi ushalmagan bittagina orzusi qolgandi: Olimpiya chempioni bo'lish!.. Toshkentda bo'lgan Osiyo chempionatida g'olib chiqib, Sidney olimpiadasi yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Mashaqqatli tayyorgarlik mashg'ulotlari boshlandi. Hamyurtlarimiz nigohi olimpiyachilarimizda, kimdir oltin medal olarmikin?.. Muhammadqodir "oyinay jahon" orqali berilgan ko'rsatuvda ishqibozlar ko'nglida umid uchqunlarini yoqdi:

– Xudo xohlasa, olimpiada oltin medalini olaman...

XX asrning so'nggi olimpiadasiga borgan har bir sportchi g'alaba ishtiyoqida yonardi. Axir, 199 davlatdan kelgan 10 ming nafardan ortiq sara sportchi, yana shuncha mutaxassis, 20 ming nafardan ziyod jurnalist, yuz minglab muxlislar ko'z o'ngida, qolaversa, butun dunyo nigoh tashlab turgan vaqtda g'alaba qozonish katta sharaf. Ayniqsa, Mustaqil O'zbekistonimiz uchun shunday g'alaba juda-juda zarur edi. Buni har bir sportchimiz bilardi. Lekin vaqt o'tib borardi, sportchilarimiz birin-ketin musobaqani to'xtatishardi. Olimpiada yopilish marosimiga sanoqli daqiqalar qolgan. O'zbekiston jamg'armasida hamon oltin medal yo'q. Hamyurtlarimiz umidi yolg'iz Muhammadqodirdan.

Hamma imkoniyatlarni chamalaydi. Muhammadqodir oldingi to'rtta uchrashuvda yaqqol ustunlik bilan g'alaba qozondi. Uning

raqibi amerikalik Rikardo Uilyams-chi? Yarim finalda kubalik bokschi ustidan 42:41 hisobida ustun kelibdi. Sakkiz daqiqa ichida 42 aniq zarba! G'alabaga intizor mutaxassis-u muxlislar qalbida hayajon, xavotir. Mana odatdagiday Muhammadqodir xotirjam ringga ko'tarildi, jangovar holatga kirdi, birdan yelkador, bo'ychan ko'rinish oldi, vujudidan arslon shiddati yog'ildi. Demak, hammasi joyida. U "jang"ning birinchi soniyasidan tashabbusni o'z qo'liga oldi. Bor-yo'g'i 8 daqiqa "jang". Shu daqiqalar Muhammadqodirni, o'zbek va O'zbekiston nomini osmon qadar ulug'ladi. Nihoyat, bong. Xalqimiz kutgan G'ALABA! Muhammadqodir Abdullayev Olimpiya chempioni! U zarbof to'n kiyib, bayrog'imizni ring uzra hilpiratdi. Keyin ringga tiz cho'kib, Ollohga hamdu sanolar o'qidi. Bu damda zaldagi tomoshabinlar, butun dunyo "Andijon arsloni"ni sharafladi.

Men filmlarda arslonlarni ko'p bor kuzatganman. Quyoshga tik boqishga o'rgangan arslonlarning ko'zlarida hech vaqt yosh ko'rmaganman. Faqat Sidney olimpiadasi shohsupasida turgan "Andijon arsloni"ning sharafiga madhiyamiz yangrayotgan, bayrog'imiz ko'tarilayotgan paytda u ko'z yoshlarini to'xtata olmadi. Bu millati, xalqi, yurti ishonchini oqlagan "arslon"ning quvonch yoshlari edi.

Ha, Olimpiya chempioni bo'lish oson emas. Biroq, Muhammadqodir Abdullayev o'zbek farzandi ham Olimpiya chempioni bo'lishi mumkinligini amalda isbotladi. Bu ibrat bo'lishi, barchamizni yuksak g'alabalar sari ilhomlantirishi lozim. Ishonchim komil, katta sportga kirib kelayotgan yoshlar orasidan yangi-yangi Olimpiya chempionlari chiqadi. Buning uchun ular yaratilayotgan imkoniyatlardan unumliroq foydalanishlari, mashq-mashg'ulotlarni kanda qilmay, yuksak maqsad sari sabr-bardosh bilan intilishlari kerak. Shunda ularning g'alabasini ham butun O'zbekiston, jahon sharaflaydi.

RUSLAN POLVON

Ruslan Chagayev 1978-yil 19-oktabrda Andijon shahrida tug‘ilgan. 12 yoshidan boks bilan shug‘ullanadi. Murabbiylari – Aleksandr Razmaxov va Mars Qo‘chqorov. 91 kg vazn toifasida O‘zbekiston (1996, 1999, 2000, 2001), Markaziy Osiyo o‘yinlari (1995, Toshkent; 1997, Almati), Osiyo (1995, 1999, Toshkent), Osiyo o‘yinlari (1998, Bangkok) va jahon (1997, Budapesht) chempioni. U 91 kg dan ziyod vazn toifasida ham jahon chempioni bo‘lgan (2001, Belfast). 2001-yildan professional bokschi. Gamburg (Germaniya)ning “Univer-sum Box-Promotions” klubi bilan shartnoma imzolab, reyting uchrashuvlari o‘tkazayapti. Hozirgi kunda 22 ta “jang” o‘tkazib, 21 tasida g‘alaba qozongan (bitta durang). Professional boksning Butunjahon boks assotsiatsiyasi (WBA) yo‘nalishida chempionlik uchun “jang” o‘tkazadi.

U Andijon olimpiya o‘rinbosarlari bilim yurtini (1997) va Andijon Davlat universitetini (2002) tugatgan.

“O‘zbekiston iftixori” (1998), “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi” (2000) faxriy unvonlari va “Elyurt hurmati” ordeni (2001) bilan mukofotlangan.

Farzanding qiziqishini ko‘rgan Zamira opa uni boks to‘garagiga olib bordi. Lekin Ruslan hali yosh bo‘lgani uchun murabbiylar unga hozircha boshqa sport turi bilan shug‘ullanib turishni maslahat berishdi. Shundan keyin Ruslan basketbol to‘garagiga bordi. Garchi u bu o‘yinga qiziqib ketganday ko‘rinsada, aslida tezroq ulg‘ayib, boks to‘garagiga borishni o‘ylardi. Nihoyat, shunday kun keldi. Yozgi ta‘tilda ona-bola yana boks mashg‘uloti o‘tkazayotgan murabbiyga uchrashishdi.

Murabbiy Ruslanning irodasini sinab ko‘rish uchun o‘sha zahoti charm qo‘lqop kiydirib, bir yildan buyon boks to‘garagida

shug'ullanayotgan shogirdi bilan ringga chiqardi. Lekin Ruslan "jang" davomida raqib zarbalaridan cho'chib, ringda qochib yurmadi, aksincha, o'zi tomon chaqqon harakatlar bilan yaqinlashayotgan raqibiga kuchli zarbalar berdi. Yangi bolaning bu xislati murabbiyga ma'qul keldi va u Ruslan bilan mashg'ulotlarni boshlab yubordi. Turnikda atigi ikki bor tortilishni uddalaydigan Ruslan tinimsiz mashqlari evaziga ko'p o'tmay bilim yurtiga qabul qilindi va 1991-yilning 1-sentabridan Andijon olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtida o'qiy boshladi. Bu unga boks bilan muntazam shug'ullanish va musobaqalarga qatnashish imkonini berdi.

Birinchi musoboqadayoq Ruslan barcha raqiblarini katta ustunlik bilan yengdi, lekin g'alabadan mag'rurlanib ketmadi, aksincha, mashqlarga zo'r berdi. Natijada, g'alabalar oqib kelaverdi. Ruslan Markaziy Osiyo o'yinlari, O'zbekiston va Osiyo chempioni bo'ldi. Bu musobaqalarda u o'zidan 10–12 yosh katta, tajribali bokschilar ustidan ham g'olib kelardi. Lekin hayot har doim yutuqlardangina iborat emas, uning og'ir sinovlari ham bor.

1996-yil yoshlar o'rtasidagi jahon birinchiligi Kubada o'tkazildi. Ruslan yarim finalda kubalik bokschiqa qarshi ringga chiqdi va yaqqol ustunlikka erishdi. Biroq, negadir hakamlar kubalik bokschini g'olib deb topishdi. 1997-yil kattalar o'rtasidagi jahon chempionati Vengriyada bo'ldi. Ruslan finalda ikki karra olimpiada, olti marta jahon chempioni bo'lgan kubalik Feliks Savonni mag'lubiyatga uchratib, oltin medal bilan taqdirlandi. Ammo kubaliklar Ruslanning havaskor bokschi bo'la turib, professional bokschi bilan "jang" o'tkazganini ro'kach qilib, chempionlik unvonidan mahrum etishga erishishdi. Boks tashkiloti Ruslanni bir yilga musobaqalardan chetlatdi. To'g'ri, qoidaga ko'ra havaskor bokschilar, professional bokschilar musobaqasida qatnashmaydi. Ruslan jahon chempionatiga tayyorgarlik davrida malakasini oshirish uchun professional bokschi bilan o'rtoqlik uchrashuvi o'tkazgandi, xolos. U aslo ruhini cho'ktirmadi, taqdirning og'ir sinovlariga mardona dosh berdi, mashg'ulotlarni avvalgidan ham

ko'proq kuchaytirdi. Bir yildan keyin katta boksga qaytishni Osiyo o'yinlaridagi g'alabasi bilan nishonladi.

Yillar o'tib haqiqat yuzaga chiqdi. Chunki Ruslan shunday kun kelishi uchun havaskor bokschilar musobaqasida ketma-ket g'alabalarga erishdi. 2001-yil Belfastda bo'lgan jahon chempionatida og'ir vaznlilar o'rtasida g'olib chiqdi. O'sha kuni undan 1997-yilda boks tashkiloti tomonidan olib qo'yilgan oltin medali ham tantanali ravishda qaytadan topshirildi. U Belfastdan boks bo'yicha ikki karra jahon chempioni bo'lib qaytdi.

Ruslan endi o'z faoliyatini professional boksga davom ettirdi. Avval Amerikadagi boks klubida shug'ullandi, keyin Germaniyaning Gamburg shahridagi "Universum Box-Promotions" boks klubi bilan shartnoma imzoladi. Ruslan 2002-yilda amerikalik Rob Kelloueyga qarshi ringga chiqdi. "Jang" davomida Ruslanning kuchli zarbalari oqibatida raqibining qoshi yorilib ketdi. Hakam 3-raundda uchrashuvni to'xtatdi. Qoidaga ko'ra, g'oliblik Ruslanga berilishi shart edi, ammo uchrashuv durang deb, e'lon qilindi.

2006-yil 6-yanvar kuni Ruslan yana Rob Kellouey bilan uchrashdi. U bu safar hakamlarga ish qoldirmadi. Ikkinchi raunddayoq raqibini nokautga uchratdi. Bu Ruslanning professional boksdagi 20-uchrashuvi, 19-g'alabasi edi. Aynan shu g'alabadan keyin Ruslan ikki yo'nalishda jahon reytingida kuchli o'nlikka kirdi. Keyingi ikkita uchrashuvda ham ishonarli g'alaba qozonib, jahon chempioniga qarshi "jang" qilish huquqini qo'lga kiritdi.

Professional boksga kuchli zarbaga ega bo'lgan Ruslan "Oq Tayson" nomini oldi. Ma'lumki, bir vaqtlar Mayk Tayson kuchli zarbalari bilan professional boksga shuhrat qozongan, mutlaq jahon chempionligini qo'lga kiritgan edi. Mayli, professional bokschilar bizning Ruslanni hurmat bilan "Oq Tayson" deb atay qolishsin. Lekin biz o'zbeklarda mardlar maydonida alplarni yiqitgan kishilar ismiga "polvon" so'zini qo'shib aytish azaliy odatdir. Shu bois biz, jahon ringlarida manaman, degan alplarni ketma-ket yiqitayotgan bokschimizni Ruslan polvon, deb atay qolamiz.

O'ZBEK QIZLARINING SHOHMOT YULDUZI

Yulduz Hamroqulova 1989-yil 2-aprel kuni Jizzax shahrida tug'ilgan. 6 yoshidan shohmot o'ynaydi. Qizlar o'rtasida to'qqiz karra O'zbekiston chempioni (1999–2006). Osiyo birinchiligining kumush (2003, Farg'ona) va bronza (2001, Bikanor) medallari sovrindori. Ayollar o'rtasida O'zbekiston chempionatida kumush (2006) va bronza (2003) medallari bilan taqdirlangan, O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi, Butunjahon shohmot olimpiadalari qatnashchisi (2004, Kalvia, Ispaniya; 2006, Turin, Italiya), 16 yoshgacha qizlar o'rtasida o'tkazilgan jahon birinchiligining bronza medali sovrindori (2005, Belfort). FIDE sport ustasi (2004). O'zbekiston Respublikasi "Shuhrat" medali bilan mukofotlangan (2005).

Butun dunyoni hayratga solgan O'zbekiston shohmot maktabi yana bir g'alabani tantana qildi. Bu tantananing fayzi o'zgacha, tarovati yoqimli. Chunki o'zbek qizi jahon shohmot birinchiligida ilk muvaffaqiyatga erishdi. Ha, Yulduz Hamroqulovanning jahon birinchiligida erishgan bronza medali o'zbek qizlarining dunyo shohmot maydonlarida qozonadigan bo'lajak g'alabalari oldidan zarhal harflar bilan yozilgan debochadir.

Aslida, biz Yulduzdan shunday muvaffaqiyatni, o'zbek ayollarining boy intellektual salohiyatini namoyish etishini kutayotgandik. U keyingi yillarda qator nufuzli musobaqalarda sovrindorlar qatoridan muntazam ravishda o'rin egallab, qalblarimizda umid chirog'ini yoqishga ulgurgandi. Yulduz 1999-yilda o'tkazilgan jahon birinchiligida ilk bor qatnashgan vaqtdayoq, shohmotchilar o'rtasida eng yuqori natijani ko'rsatgan va Yurtboshimizning

sovg'asi bilan taqdirlangandi. 2001-yil boshida Hindistonda o'tkazilgan Osiyo birinchiligida esa bronza medalini qo'lga kiritgandi. Bu medal O'zbekiston xotin-qizlarining XXI asrda xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritgan birinchi medali sifatida sport tariximizdan o'rin oldi.

Yil o'tgan sayin Yulduzning mahorati oshdi, musobaqalarda erishayotgan natijalari yaxshilandi. Shu ma'noda 2003-yil Yulduz uchun xayrli keldi. Avval qizlar o'rtasida O'zbekiston chempioni bo'ldi, keyin ayollar o'rtasida o'tkazilgan mamlakat birinchi tabaqa musobaqalarida 2-o'rinni egallab, oliy tabaqaga yo'llanma oldi. Oliy tabaqa musobaqalarida esa, bronza medali bilan taqdirlandi, O'zbekiston terma jamoasi safiga qabul qilindi. Yozda Farg'onada uyushtirilgan 16 yoshgacha qizlar o'rtasidagi Osiyo birinchiligida kumush medalni qo'lga kiritdi.

Dunyodagi har bir shohmotchining orzusi Butunjahon shohmot olimpiadasida ishtirok etishdir. Yulduz bunday baxtga 15 yoshida musharraf bo'ldi. U 2004-yil Ispaniyaning Kalvia shaharchasida tashkil etilgan shohmot olimpiadasida qatnashibgina qolmay, qator chiroyli o'yinlari bilan mutaxassislar nazariga tushdi.

– Yulduz musobaqalarda bir maromda o'ynaydigan shohmotchilar qatoriga kiradi, – deydi mamlakat ayollar terma jamoasining bosh murabbiyi Farhod Sobirov. – Uning shu yoshida kattalarday vazmin dona surishi katta iste'dod egasi ekanligidan darak beradi.

Chindan ham Yulduz musobaqalarda sovrinli o'rinlarni egalamasam ham chiroyli g'alabalari mutaxassislar nazariga tushadi, "Musobaqaning eng chiroyli o'yini"ga beriladigan mukofotga loyiq ko'riladi. Chunonchi, 2005-yil o'tkazilgan Osiyo birinchiligida musobaqa g'olibi bo'lgan hindistonlik shohmotchini chiroyli tarzda mag'lubiyatga uchratdi. Bu Yulduz uchun jahon birinchiligi oldidan tayyorgarlik edi, xolos.

Fransiyaning Belfort shahriga yo'l olgan Yulduzga jahon birinchiligida yaxshi o'yin ko'rsatish istagi hamroh bo'ldi. U qatnashayotgan 16 yoshgacha bo'lgan qizlar musobaqasida 96

nafar shohmotchi qiz dona surdi. Har bir qatnashchi o'z mamlakatining chempioni. Lekin Yulduz musobaqa boshidan yuqori natijalarni ko'zladi. Shveysarcha tartibda o'tkazilgan musobaqalarda oxirgi turlarda ko'rsatilgan natijalar muhim ahamiyatga ega. Aynan oxirgi turlarda Yulduz shiddatli o'yinlar namoyish qildi. So'nggi turda erishgan g'alabasi uni sovrindorlar qatoriga kiritdi va 11 imkoniyatdan 8,5 ochko to'plagan holda xalqaro miqyosdagi sport ustasi talabining dastlabki balini oldi.

Agar shohmotimiz faxri bo'lgan Rustam Qosimjonov ham 1994-yilda 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasidagi jahon birinchiligida bronza medalini qo'lga kiritganini esga olsak, Yulduz ham zafarli yo'ldan ketayotganiga ishonch hosil qilamiz. Bugun faxr bilan esga olishimiz kerak, Yulduzning iste'dodi qanot yozishida Rustamning ham hissasi bor. Rustam 2001-yilda Jizzaxda bo'lib, shohmotchilarga qarshi bir yo'la o'yin o'tkazgandi. O'shanda Yulduz Rustam bilan durang o'ynadi va yosh grossmeyster jizzaxlik qizning iste'dodli ekanligini aytib, tarbiyalashlarini iltimos qildi.

Bo'lajak jahon chempionining taklifi e'tiborga olindi va Yulduzga O'zbekiston Prezidenti sovg'asi – yosh shohmotchi uchun juda zarur zamonaviy kompyuter topshirildi.

Bugun o'sha e'tibor, o'sha g'amxo'rliklar dastlabki samarasini berdi. Yulduz ham Rustamning shonli muvaffaqiyatlarini takrorlay boshladi. Albatta, Yulduzning kelajagi oldinda, shohmotda qanday g'alabalarga erishishi o'z qo'lida. Lekin Yulduzning kelajakda qanday shohmotchi bo'lishi ko'p omillarga, shu jumladan unga ko'rsatadigan g'amxo'rligimizga ham bog'liq. Imonim komil, to'marislarni, barchinoylarni, nodiralarni, zulfiyalarni voyaga yetkazgan bizning xalqimiz ozod-hur zamonda o'zining yangi yulduz qizlarini tarbiyalaydi. Albatta, yulduz qizlarimiz jahon osmonida charaqlab nur taratishadi.

BAXTLI ZAYNIDDIN

Zayniddin Zidan 1972-yil 23-iyunda Fransiyaning Marsel shahrida tugʻilgan. U Fransiyaning “Kann” (1986–1992), “Bordo” (1992–1996), Italiyaning “Yuventus” (1996–2001) va Ispaniyaning “Real” (2001–2006) klublarida oʻynadi. Italiya (1996, 1997) va Ispaniya (2003) chempioni. Chempionlar ligasi (2002), Yevropa superkubogi (2002), Qitʼalararo kubok (1996, 2002) gʻolibi. Fransiya terma jamoasi tarkibida jahon (1998) va Yevropa (2000) chempioni. Jahon chempionati kumush medali sovrindori (2006, Germaniya). Yevropaning (1998) va jahonning (FIFA soʻrovi – 1998, 2000, 2003; “World Rosser” soʻrovi – 1998, 2000, 2001) eng yaxshi futbolchisi.

“Hozirgi yoshlardan kimdir menga oʻxshashga intilsa yoki oʻyinlarimga havas qilsa, oʻzimni baxtiyor hisoblayman”. Bu dunyoga mashhur futbolchi Zayniddin Zidanning soʻzlaridir. Lekin u shu soʻzlarni aytish uchun qancha-qancha mashaqqatli dovonlarni bosib oʻtdi.

Arab millatiga mansub jazoirlik yosh kuyov-kelin – Ismoil va Malika ham Fransiya ishlariga pul topish uchun kelishgandi. Ular Marselning chekka “La Kastelena” dahasida yashay boshlashdi. Yosh oilada ketma-ket farzandlar dunyoga keldi. Beshinchi farzandiga yaxshi niyat bilan Zayniddin deb ism qoʻyishdi (Zidanning “Real” tarkibida 5-raqamda oʻynagani shundan).

Dahada istiqomat qilayotgan boshqa arablar kabi Ismoilning oilasi ham qashshoq kun kechirardi, hatto futbolga mehr qoʻygan oʻgʻillariga koʻptok olib berishga qurbi yetmasdi. Shu bois Zayniddin bolaligidan ichimliklarning kauchukli idishlari bilan futbol oʻynab katta boʻla boshladi. Zayniddin besh yoshga yetganda

oilaga omad kulib boqib, velosiped sotib olishdi. Endi velosipedda uchish Zayniddinning sevimli mashg'ulotiga aylandi. Olti yoshidan esa yakkakurash to'garaklariga qatnashib ko'rdi. Bu mashg'ulotlar oxir Zayniddinning joniga tegdi va u o'zi yoqtirgan futbol o'yiniga berilib ketdi.

Marsellik bolalar kabi Zayniddin ham shu shaharning mashhur "Olimpiya" jamoasiga ishqibozlik qilardi. Aynan shu ishqibozlik uning futbolga bo'lgan qiziqishini oshirardi. 12 yoshida ro'y bergan bir voqea Zayniddinning umr yo'lini belgiladi. U ota-onasi ovqatlanishi uchun bergan pullarni yig'ib, 1984-yilgi Yevropa chempionatining Fransiya–Portugaliya uchrashuviga chipta sotib oldi. Ulkan o'yingohda birinchi marta futbol tomosha qilayotgan Zayniddin hujumkor yarim himoyachi Mishel Platini o'yiniga mahliyo bo'lib qoldi. U o'sha kuni orzu qilganday, maydonga har doim hujumkor yarim himoyachi sifatida tushdi.

1986-yil 15-noyabr kuni Zayniddinning xotirasida bir umr muhrlanib qolgan. O'sha kuni "Kann" jamoasining murabbiysi Jan Vara uning ota-onasi bilan gaplashib, o'z jamoasiga olib ketdi. 1989-yil 20-may kuni shu jamoa tarkibida birinchi o'yinini o'tkazdi. Endi Zayniddinning mahorati kun sayin oshib borardi. Unga turli jamoalardan takliflar tushdi. Nihoyat, 1992-yilda Fransiyaning nomdor jamoasi – "Bordo"dan tushgan taklifni qabul qildi. Shu jamoa tarkibida Zayniddin iqtidorining yangi qirralari ochildi, milliy terma jamoa safiga chaqirildi.

1994-yil 17-avgust kuni bo'lgan Fransiya–Chexiya o'rtoqlik uchrashuvining 73-daqiqasida Zayniddin Zidan 0:2 hisobida yutqazayotgan jamoasiga yordam berish uchun maydonga tushdi. O'yinning 85- va 87-daqiqalarida biri-biridan chiroyli ikkita gol muallifi bo'lib, ishqibozlar olqishini oldi, unga ishonch bildirgan murabbiy Eme Jakening hurmatini qozondi.

Fransiya chempionati va terma jamoasida ajoyib o'yin ko'rsatayotgan Zidan italiyalik mutaxassislarni qiziqtirib qoldi. O'ziga xos bu poygada Zidan uchun katta mablag'ni ayamagan Turinning "Yuventus" jamoasi g'olib chiqdi. Saviya jihatdan ancha yu-

qori bo'lgan Italiya chempionati o'yinlarida qatnashish Zidanning mahoratiga mahorat qo'shdi, shuhratini yanada oshirdi.

O'sha yillari Zidan Fransiya terma jamoasi safida ham chiroyli o'ynadi. 1998-yilgi jahon chempionatida Zidan yulduzli onlarni boshidan kechirdi. Ayniqsa, final uchrashuvida Braziliya darvozasiga kiritgan ikki to'pi va uchrashuv davomidagi chiroyli o'yini Zayniddin Zidanni Fransiyaning milliy qahramoniga aylantirdi, uni futbol yulduzlari qatoriga qo'shdi. Zidan 2000-yili o'tkazilgan Yevropa chempionatida ham o'z milliy jamoasini g'oliblik sari yetaklab bordi.

2001-yili Ispaniyaning "Real" jamoasi Zayniddin Zidan uchun "Yuventus"ga 64,4 million AQSH dollari to'lab, uni o'z safiga qo'shib oldi. Bu o'sha vaqtdagi futbol bozoridagi eng qimmat shartnoma edi. Dunyoning eng qimmatbaho o'yinchisi ispaniyalik mutaxassislar ishonchini ham oqladi. U nomdor "Real" klubi tarkibida besh yil davomida chiroyli o'yini bilan futbol muxlislari-ga olam-olam quvonch ulashdi.

2006-yilgi jahon chempionatida Zidan yulduzi qaytadan porladi. U chempionatning eng yaxshi futbolchisi deb tan olindi, Fransiya jamoasi kumush medal bilan taqdirlandi. U mazkur jahon chempionatidan keyin katta futbol bilan xayrlashdi. Afsuski, vaqt to'xtab turmaydi. Chiroyli o'yinlari bilan muxlislarni lol etgan Zayniddin Zidan ham futbolning moziydagi yorqin yulduzlari qatoridan o'rin oldi.

BIZ BILGAN, BILMAGAN RONALDO

Ronaldo Luis Nazario da Lima 1976-yil 22-sentabrda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida tug‘ilgan. Belu-Orizonti shahrining “Kruzeyro” klubida futbol o‘ynayotgan davrida mutaxassislar nazariga tushgan. Gollandiyaning “Eyndxoven” (1994–1995), Ispaniyaning “Barselona” (1996–1997), Italiyaning “Inter” (1997–2001), yana Ispaniyaning “Real” (2001–2007) klublarida o‘ynadi. 2007-yildan Italiyaning “Milan” klubi hujumchisi. “Real” tarkibida Ispaniya chempioni (2003). Jahon chempioni (1994, 2002), jahon chempionati kumush medali sovrindori (1998). Olimpiada bronza medali sohibi (1996, Atlanta), yilning eng yaxshi futbolchisi (1996, 1997, 2002).

Yaqinda dunyoning mashhur futbolchisi va badavlat kishilaridan biri bo‘lgan Ronaldo jurnalistning savoliga **“Yoshligimda o‘qimaganimdan afsusdaman”**, deya javob qaytardi. Bu javob o‘qib-o‘rganmasdan biror sohada mashhur bo‘lib qolishni istayotgan bolalarni ilm sari undasa ajab emas. Chunki ilm aqlning chirog‘i, umr yo‘lining mayog‘idir.

Xolisanilillo aytsak, Ronaldoning maktabda to‘liq o‘qishga imkoniyati bo‘lmadi. U ham braziliyalik bolalar kabi juda erta to‘p o‘ynay boshladi. Onasi Sonya o‘g‘li haqida gapirganda: “Ronaldo to‘rt yoshida uyqusirab o‘rnidan turgandi va “To‘pni menga uzat, gol uraman”, deb qichqirgandi”, deyishni xush ko‘radi. Ha, Ronaldo futbolga erta mehr qo‘ydi. Qorong‘i tushguncha ko‘chadan uyga kelmay to‘p tepdi.

Ayrimlar Ronaldo kambag‘al oilada tug‘ilgan, deb yozishadi. Bunday deyish unchalik to‘g‘ri emas. Chunki Ronaldoning onasi Sonya qahvaxonada muzqaymoq sotuvchisi bo‘lib, otasi Nelio

telefon stansiyasida xizmat qilardi. Faqat bir gal futbol chempionati uchrashuvida o'g'lining o'yinini tomosha qilib, ishga kelmagani uchun Nelio o'z vazifasidan bo'shatilgandi. Uning ota-onasi futbolni yaxshi ko'rishganini va Ronaldoning futbolchi bo'lib vovaga yetishishini istashganini shundan ham bilsa bo'ladi.

Ronaldoning ham futbol faoliyati test topshirishdan boshlandi. U testni yomonroq topshirgani uchun uchinchi liga jamoasiga jo'natildi. Bu jamoada har kiritgan goliga mukofot tariqasida tekin tushlik berilardi, xolos. Lekin Ronaldo ishlab topgan birinchi maoshidan onasiga sovg'a olib keldi. Albatta, o'z iste'dodini kamol toptirish uchun tinmay mashq qilayotgan Ronaldo mutaxassislar nazaridan chetda qolmasdi. U ikkinchi ligada qatnashayotgan Belu-Orizonti shahrining "Kruzeyro" klubiga chaqirildi, keyinroq mamlakat terma jamoasiga taklif etildi. 17 yoshli Ronaldo tishlarini to'g'rilovchi metall moslama bilan yurgani uchun terma jamoaga kelishi bilan mashhur futbolchi Romario unga "qo'rg'oshin og'iz" degan nom berdi.

Yevropalik mutaxassislar ham Ronaldo bilan qiziqib qolishdi. Dastlab u Gollandiyaning "Eyndxoven" tarkibiga qo'shildi. Yangi jamoasida birinchi o'yinning 8-daqiqasidayoq chiroyli gol kiritdi. Mavsum davomida esa gollari sonini 30 taga yetkazdi. Bunday to'purar hujumchiga kuchli klublar xaridor bo'lishdi. U taniqli "Barselona" klubiga chaqirildi. Aynan shu jamoada ko'pchilik nazariga tushgan golini kiritdi. O'shanda Ronaldo maydon markazida to'pni qabul qilib, katta tezlikda raqib himoyachilari va darvozabonini aldab o'tib, chiroyli gol muallifiga aylangandi. Shuningdek, u olimpiya terma jamoasi tarkibida Atlanta olimpiadasida ham chiroyli o'yin ko'rsatdi va mutaxassislar tomonidan "Yilning eng yaxshi futbolchisi" deb topildi.

Bu davrda Ronaldoning futbol maydoni tashqarisidagi ishlari ham yurishdi. U mashhur "Nayk" kompaniyasi bilan umrining oxirigacha shartnoma imzoladi. Shuningdek, Braziliyaning "Braxma", Italiyaning "Parmalat" va "Pirell" firmalari bilan ham shartnoma tuzdi. Ronaldoning mashhurligi oshgan sayin shartnoma

tuzgan firmalari soni ham, ulardan kelib tushayotgan mablag'lar miqdori ham keskin oshib bordi.

Mashhurlik va boylik Ronaldoni kibrlantirib yubormadi. U hamon maydonda o'zini sipo tutadi. O'yin vaqtida o'ziga nisbatan qo'pollik ishlatgan himoyachilar bilan tortishmaydi, hakamlar bilan ham bahslashmaydi. Maydondan tashqarida jurnalistlarning savollariga jo'yali javob beradi.

– Pulga munosabatingiz.

– Hayotimda pul muhim o'rin egallamaydi. Men uchun samimiy do'stlik kuchliroq.

– Siz yulduzmisiz?

– Nimalar deyapsiz, men omadi kulgan futbolchiman, xolos.

Ba'zan Ronaldo o'zi kiritgan chiroyli golni e'tiborga molik voqeaga bag'ishlaganini ta'kidlaydi. Xususan, u nufuzli xalqaro uchrashuvdan keyin kiritgan chiroyli golini braziliyalik hindularga bag'ishlaganini aytgandi.

Dunyoda eng kuchli hisoblangan Italiya chempionatida ham Ronaldo to'purarlik qobiliyatini yo'qotmadi. Ko'p o'tmay katta mablag' evaziga Ispaniyaning qirollik klubi – “Real”ga taklif etildi. Shu tariqa u yulduzlar jamoasining yorqin yulduziga aylandi.

2002-yilgi jahon chempionati Ronaldoga sharaf keltirdi. To'g'ri, u 1994-yil AQSHda o'tkazilgan jahon chempionatida maydonga tushmagan bo'lsa ham jamoadoshlari qatori chempionlik oltin medali bilan taqdirlangandi. 1998-yil Fransiyada bo'lib o'tgan jahon chempionatida esa kumush medalni qo'lga kiritgandi. Lekin u Koreya va Yaponiyada o'tgan jahon chempionatida birinchi raqamli yulduz ekanligini tasdiqladi.

Ayniqsa, Ronaldoning o'yini mamlakat terma jamoasi tarkibida Braziliya maydonlarida to'p surganda ochiladi. Yaqinda Braziliya terma jamoasi Janubiy Amerika chempionatining navbatdagi uchrashuvida asosiy raqibi argentinaliklarni Belu-Orizontida qabul qildi. Bu uchrashuvda Ronaldo chiroyli o'ynadi, uchta

gol kiritdi, uchalasi ham penaltidan. Ronaldo bu gollarini barcha braziliyalik muxlislarga bag'ishlagan bo'lsa ajab emas.

2006-yilda "Real" klubiga yangi murabbiy taklif etildi. U uchrashuvlarda Ronaldoni onda-sonda maydonga tushirdi. Ronaldo o'yin amaliyotini yo'qotmaslik uchun 2007-yil boshida Italiyaning "Milan" klubi tarkibiga o'tdi.

Har to'kisda bir ayb, deb bejiz aytishmaydi. Matbuotda tez-tez Ronaldoning navbatdagi go'zal bilan nikohdan o'tishga ahdlashgani to'g'risidagi xabarni o'qib qolamiz: Syuzanna Verner, Mile-na Dominges, Daniella Chikarelli... Ehtimol, buning sabablarini Ronaldoning o'spirinlik yillaridan qidirish kerakdir. O'spirin Ronaldo Braziliya yirik kompaniyasi rahbarining qizi Oyne Franka bilan uchrashib turardi. Biroq, badavlat ota qizining O'QIMAGAN futbolchi bilan uchrashib turishini taqiqladi.

Baribir, Ronaldoning maqtovga loyiq bir fazilati bor. U qayerda bo'lmasin Rio-de-Janeyro markazidagi muhtasham binoda yashayotgan onasiga telefon qiladi. Ona va o'g'ilning uzoq davom etadigan suhbatlari deyarli har gal shunday yakunlanadi: **"Oyijon, siz yana mening maktabni tugatishimni so'rayapsizmi?!"**

Men yaqinda matbuotda qiziq xabarni o'qib qoldim. Xorijlik bir qariya maktabga qatnab o'qishni o'ziga uyat bilmay, nihoyat o'qishni tugatibdi. Bilmadim, qachondir Ronaldo ham onasi istagini bajo keltirib, maktabdagi o'qishini tugatar. Lekin, mening shu narsaga ishonchim komil, mazkur maqolani o'qigan yosh o'quvchilarimiz maktabni albatta a'lo baholarga tugatishadi. Chunki yurtimizda ularning a'lo o'qishlari uchun barcha shart-sharoit mavjud.

BASKETBOL – MENING HAYOTIM

Arvidas-Ramos Sabonis 1964-yil 19-dekabrda Litvaning Kaunas shahrida tug‘ilgan. 8 yoshidan basketbol bilan shug‘ullanadi. Yevropaning eng yaxshi basketbolchisi (1984, 1985, 1988, 1995, 1997), Yevropa (1985) va jahon (1982) chempioni, olimpiada chempioni (1988), ikki bor Litva jamoasi tarkibida olimpiada bronza medaliga sazovor bo‘lgan (1992, 1996), “Jalgiris” (Litva) tarkibida qit‘alararo kubok sohibi (1986), “Real” (Ispaniya) tarkibida Yevropa klublari chempionati g‘olibi (1995), “Portlend” (AQSH) tarkibida Milliy basketbol assotsiatsiyasi finalida o‘ynagan (1996), “Barcha yulduzlar uchrashuvi” ishtirokchisi (1995).

– Men bolaligimdan buyuk kishilar va mashhur sportchilar haqida yozilgan kitoblarni sevib o‘qirdim. Bolaligimda yoq xotiramga gollandiyalik taniqli konkichi Keyesa Ferkerkaning: “Hayotda yiqilib, qad rostlab ulg‘ayasan”, degan so‘zlari muhrlanib qolgan. Haqiqatan ham shunday, faqat mashaqqatli yo‘llardan o‘tibgina “yulduz”ga aylanish mumkin, – deydi Arvidas Sabonis yoshlarga bildirgan tilagida.

Litvaning Kaunas shahrida ashaddiy basketbol muxlislari yashaydi. Bu shaharda sport maydonlaridagina emas, hovlida, ko‘chada, istirohat bog‘larida ham basketbol o‘ynash uchun to‘rli halqalar o‘rnatilgan. Dunyoning mashhur basketbolchilaridan biri Arvidas Sabonisning Kaunasda tug‘ilgani ham bejiz emas. Sabonisning maydondagi o‘zigagina xos chiroyli o‘yinlari muxlislarni ham, mutaxassislarni ham hayratga solardi. Ular Sabonis haqida to‘lib-toshib gapirishardi.

Shu o‘rinda basketbol bilimdoni Stapas Butautasning quyidagi fikrlarini eslashimiz lozim: **“Men Sabonisday basketbolchi-**

ning o'yinlarini ko'rish baxtiga musharraf bo'lganimga shukur qilaman. U o'zida boqiy basketbolni mujassam etgan. Maydonda shunday yorqin o'yin ko'rsatadiki, uni hech bir basketbolchiga qiyoslab bo'lmaydi. Boshqa bunday basketbolchini bizning zamondoshlarimizgina emas, bolalarimiz, hatto nabiralарimiz ham ko'rishmasa kerak. Chunki, Sabonisga o'xshash basketbolchilar yuz yilda bir marta dunyoga keladi".

Arvidas tabiatan basketbol uchun tug'ilgandi: bo'ydor, jussali, qo'llari va barmoqlari uzun. Biroq u mohir basketbolchi darajasiga tinimsiz mashqlari evaziga erishdi. 8 yoshida basketbol to'garagiga qadam qo'ygan kunidan boshlab astoydil shug'ullandi. To'g'ri, 9 yoshida ota-onasi – Andrius va Mildaning ra'yiga qarab, biroz akkordeon to'garagiga qatnadi. Biroq uydan nota daftarini olib chiqardi-yu, to'g'ri basketbol maydoniga jo'nardi. Buni sezgan otona o'g'lidan musiqa mashg'ulotiga qatnashishni boshqa talab qilishmadi. Axir, Arvidas basketbol mashg'ulotlariga berilib ketgandi-da. U mashqlarda, o'yinlarda "charchadim" degan so'zni mutlaqo tilga olmasdi. Qora terga botguncha shug'ullanardi, hushtak chalinguncha jon koyitib o'ynardi.

17 yoshida bo'yi 213 sm ga yetdi. Arvidas murabbiyi Yuriy Fedorovdan: "Bunday o'saversam nima bo'ladi?" – deya tashvishlanib so'radi. Murabbiy unga ko'proq mashq qilish kerakligini uqtirdi. Arvidas mashg'ulotlari hajmini yanada oshirdi. Ko'p o'tmay "Jalgiris" bosh murabbiyi Vladas Garastas Arvidasni jamoasiga taklif qildi. "Jalgiris" jamoasi kiyimida maydonga tushgan kun Arvidas uchun bayram bo'ldi. Tez orada mamlakat terma jamoasi safiga chaqirildi. Basketbolning nozik bilimdoni Aleksandr Gomelskiy 17 yoshli Arvidasga terma jamoada markaziy hujumchi vazifasini ishonib topshirdi. Jahon chempionatida Sabonis deb atalgan yulduz basketbol osmonida yorqin nur taratdi. Ha, Sabonis 17 yoshida jahon chempioni bo'ldi. Uning bu rekordini hanuzgacha hech bir basketbolchi takrorlay olgani yo'q.

1986-yil qit'alararo kubok finalida qiziq voqea yuz berdi. O'yin Argentinada o'tayotgani uchun kanadalik hakam ochiqchasiga mezbonlarga yon bosa boshladi. Sabri tugagan jamoa faxriysi Yovaysha do'stlari Sabonis, Xomichyus, Kurtinaytisga bir qarab oldida hakamga yaqinlashib inglizchada dedi: "Basketbol – mening hayotim! Sizning aybingiz bilan shu o'yinni yutqazsak, hayotim barbod bo'ladi..." Bu gaplar Sabonisning ham, litvalik boshqa basketbolchilarning ham dilidagi gaplar edi. Ta'sirlangan hakam o'yinning qolgan vaqtini halol boshqardi va "Jalgiris" g'alaba qozondi.

O'sha yili AQSHda o'tkazilgan ko'rgazmali uchrashuvlarda Sabonis ajoyib o'yin ko'rsatdi. Bo'yi 224 sm bo'lgan Sabonisning ikki qo'llab halqa ustidan gol urishi, o'rta va uzoq masofadan halqaga to'pni aniq tashlashi, markaziy hujumchi bo'lishiga qaramasdan 2–3 nafar raqibini chaqqon aldab o'tishi, qaramasdan turib maydonning narigi chekkasidagi sherigiga to'pni qulay tarzda uzatishi amerikaliklarni lol qoldirdi. Ishbilarmonlar uni 20 million dollarlik shartnoma evaziga "Portlend"da o'ynashga ko'ndirishga harakat qilishdi. Arvidas ishbilarmonlarga samimiy javob berdi: "Men hali "Jalgiris" uchun ko'p o'ynashim kerak".

1987-yil Arvidas uchun omadsiz keldi. Chap oyog'idagi jarohati bilan o'ynayotgan Arvidas keskin harakatlandi. Uning vazni 110 kg dan oshiq bo'lgani uchun og'irlikka dosh berolmagan chap oyog'idagi paylari uzildi. Hatto, Sabonis endi basketbol o'ynay olmaydi, degan gap-so'zlar tarqaldi. Uni Vilnyusda finlyandiyalik mutaxassis operatsiya qildi. Keyin Portlendda muolajani davom ettirdi. Bir yillik muolaja va rejali mashg'ulotlar tufayli Sabonis basketbolga qaytdi. Ko'p o'tmay u Seul olimpidasida terma jamoaning chempion bo'lishiga yordam berdi.

1989-yil Ispaniyaning "Forum Filateli" jamoasiga o'tdi. 1992-yilda esa Yevropa miqyosi uchun eng qimmat shartnomani imzolab, "Real" jamoasi tarkibida o'ynadi. O'sha yili Litva terma jamoasi tarkibida Barselona olimpiadasida bronza medalini qo'lga

kiritdi. Sabonis bu muvaffaqiyat haqida shunday degandi: **“Litvadek kichik davlatning olimpiada bronza medalini qo‘lga kiritishi mo‘jiza. Mening bu muvaffaqiyatda hissam borligidan faxrlanaman”**.

Yevropa yetakchi basketbolchilarining ham MBA musobaqalarida o‘zini ko‘rsatishi qiyin kechadi. Shu bois ko‘pchilik Sabonisning MBA musobaqalarida qatnashishini orziqib kutishgandi. Nihoyat, Sabonis 1995-yilda “Portlend” jamoasi bilan ko‘p yillik shartnoma imzoladi. Dastlabki yiliyoq “Barcha yulduzlar uchra-shuvi”da o‘ynadi. Keyingi mavsumda oyning eng yaxshi o‘yinchisi bo‘ldi, finalga chiqdi.

Arvidas Sabonis qayerda bo‘lmasin Litva istiqbolini o‘ylab yashaydi. Terma jamoaga chaqirilgan payt yetib kelib, jahon maydonlarida Litva sharafini munosib himoya qildi. 1992-yilda Kaunasda “Jalgiris” bolalar-o‘smirlar basketbol maktabi ochilishiga bosh-qosh bo‘ldi. Zarur paytlarda qadrdon jamoasini qo‘llab-quvvatladi. 1998-yili esa “Jalgiris” klubi aksiyalarining katta qismini sotib oldi. Xullas, Litva Arvidasni dunyoga tanitdi, Sabonis esa Litva sharafiga sharaf qo‘shdi.

Umuman olganda, Arvidas Sabonis Litva haqida so‘zlaganda, har qanday odamning vatanparvarlik tuyg‘ulari jo‘sh uradi.

– Olti yil AQSHda yashagan bo‘lsam-da, ona Vatan sog‘inchi meni tark etmadi. Portugaliyada ham uyim bor, lekin u Litvadan juda uzoqda joylashgan. Ispaniyada yashash yaxshi, biroq mening haqiqiy, eng yaxshi uyim Kaunasdagisidir.

Ha, Sabonis haq gapni aytadi. Har kimga o‘z Vatani azizdir. Biz uchun esa, dunyoda O‘zbekistondan aziz, go‘zal Vatan yo‘qdir.

SHARAPOVA – MO‘JIZA

Mariya Sharapova 1987-yil 19-aprelda Rossiyaning Nyagan shahrida tug‘ilgan. 5 yoshidan tennis o‘ynaydi. 2001-yildan professional tennischi. Ayollar tennis assotsiatsiyasi (WTA) tasnifidagi o‘n yettita musobaqada g‘olib chiqqan. “Ulkan toj” (2004, London, “Uimbldon”; 2006, Nyu-York, AQSH ochiq chempionati) va WTA chempionati (2004, Los-Anjeles) g‘olibi. Yetti hafta mobaynida jahonning birinchi raketkachisi (2005-yil 23-avgustdan 7-noyabrigacha) bo‘lgan. 2005–2006-yillarda Rossiyaning eng ko‘p pul topgan sportchisi sifatida tan olindi. O‘ndan ziyod mashhur kompaniyalar bilan shartnoma imzolagan.

Mariyaning soat ishlab chiqaradigan TAG Heyer kompaniyasi bilan imzolagan shartnomasi unchalik katta emas. Ya‘ni, Mariya uch yil davomida shu kompaniyaning sekundomerini musobaqalar davomida olib yuradi va buning evaziga kompaniya unga 3 million dollar beradi. Uning qolgan shartnomalari miqdori bundan bir necha marta katta. Yana Mariya tennis musobaqalarida yaxshi qatnashgani uchun katta mukofot pullari bilan taqdirlanadi. Birgina Los-Anjelesdagi musobaqada g‘olib chiqqani uchun 1 million dollardan ko‘proq mablag‘ egasi bo‘ldi.

Shunday mashhur tennischi va badavlat qiz bo‘sh vaqtida nima bilan shug‘ullanadi? **“Darslarimni tayyorlayman. Hozir ayniqsa, iqtisod va kimyo bo‘yicha ko‘proq shug‘ullanayman. Akademiyani tugatishimga hali uch yil bor”**, – deb javob qaytardi Mariya bu savolga. U bilim olishga intilyaptimi, demak oldiga yuksak maqsadlarni qo‘ygan. U bu yo‘lda qiyinchilikdan cho‘chimaydi.

Mariya tennisga 4 yoshida qiziqib qoldi. Bu vaqtda ota-onasi Sochiga ko'chib kelishgandi. Otasi Yuriy Sharapov kortda mashhur tennischi Yevgeniy Kafelnikov bilan uchrashib, do'stlashdi. Aynan Kafelnikov Mariyaga o'zining raketkasini sovg'a qildi. Albatta, bu sovg'a qizaloqqa qo'shimcha kuch bag'ishladi. Moskvadagi musobaqaga kelgan mashhur tennischi Martina Navratilova olti yoshli qizaloq Mariya bilan ham mashg'ulot o'tkazdi. Qizaloqning iste'dodiga tan bergan tajribali tennischi Mariyanning otasiga tennis akademiyasiga olib borishni tayinladi.

Ota-bola Amerikadagi Bolletern tennis akademiyasiga yo'l olishdi. Ma'lumki, bu akademiyada mashg'ulotlar soat 5.30 da boshlanib, soat 21.00 gacha davom etadi. Endi uxlamochi bo'lgan Mariyani katta qizlar atayin pol yuvishga majbur etishardi. "Men dunyoda birinchi raketkachi bo'lishim uchun mashg'ulotlarga ham, kamsitishlarga ham chidashim kerakligini bilardim", – deb eslaydi o'sha kunlarni Mariya. U sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, 15 yoshdayoq yirik musobaqada g'alaba qozondi.

G'alabalari g'alabalarga ulangan paytlarda ham maqsadi yo'lidan adashmadi. "Jurnallar muqovasida taltayib turish mening ishim emas. Fotomodel sifatida suratga tushishni istamayman. Maqsadim, kortlarda eng yuksak natijaga erishish", deb javob qaytardi Mariya reklama kompaniyalaridan tushgan takliflarga. Holbuki, u o'sha vaqtdayoq bitta jurnal muqovasi uchun suratga tushish bilan millionlab pul ishlab olishi mumkin edi.

Tirishqoq Mariya uchun 2004-yil muvaffaqiyatli keldi. Iyul oyida "Ulkan toj" turkumiga kiruvchi Londondagi "Uimbldon" musobaqasida g'olib chiqdi. Yil oxirida esa Los-Anjelesda saralangan kuchli tennischilar o'rtasidagi musobaqada ham g'alaba qozondi. Xolis aytsak, bu musobaqalarda g'alaba qozonish dunyodagi barcha tennischilarning orzusi. 17 yoshli Mariya shunday muvaffaqiyatga erishgan eng yosh tennischi sifatida tarix sahifasidan joy oldi. Endilikda tabiatan go'zal va mashhur tennischi Mariya Sharapova bilan yirik kompaniyalar mahsulotlarini reklama qilish

maqsadida qator shartnomalar taklif etishyapti. To'g'ri, Mariya 2005-yilda qator kompaniyalar bilan foydali shartnomar imzoladi. Lekin u asosiy e'tiborini tennis kortlariga qaratdi. Chunki uning dunyoda birinchi raketkachi bo'lishday orzusi hali ushalmagandi.

Sha'niga maqtovlar aytilayotgan, musobaqalarda ketma-ket g'alaba qozonayotgan tennis malikasi muvaffaqiyatlardan o'zini yo'qotib qo'ymadi. Aksincha, mashq-mashg'ulotlari hajmini oshirdi, bo'lajak musobaqalarga jiddiy hozirlik ko'rdi. Natijada, 2005-yilda o'tkazilgan yettita musobaqada g'alaba qozondi va to'plagan ochkolariga ko'ra 23-avgust kuni dunyoning birinchi raketkachisiga aylandi.

– Nihoyat, jahon reytingida birinchi o'ringa ko'tarildim. Bu men uchun oliy baxt. Orzuyimga erishdim, – dedi xursandlik bilan Mariya bu xushxabarni eshitgan hamon. Bu o'n yildan ziyod vaqt davomida oliy maqsadlar sari og'ishmay intilgan va orzusiga erishgan qat'iyatli qizning dil so'zlaridir. Yana shu ma'lumotni qo'shimcha qilishimiz kerak, Mariya Sharapova tennis tarixida 15-birinchi raketkachi bo'ldi.

To'g'ri, Mariya 2005-yil oxirida olgan jarohatlari tufayli musobaqalarda kamroq qatnashdi va jahon reytingida 3-o'ringa tushdi. Biroq uning maqsadi o'zgargani yo'q, yana dunyoda birinchi raketkachi bo'lish uchun harakat qilyapti.

2006-yil Mariya uchun omadli keldi. Qator nufuzli musobaqalarda, jumladan, "Ulkan toj" turkumiga kiruvchi AQSH ochiq chempionatida g'alaba qozondi. Musobaqalarda to'plagan ochkolariga ko'ra yil yakunida tennischilar jadvalida ikkinchi o'ringa ko'tarildi.

Shu o'rinda jahon tennis yulduzi Jon Makinroyning Mariya to'g'risida aytgan fikrini eslashimiz joiz: "Kortda yuz berayotgan narsalarga hech ishongim kelmaydi. Sharapova – mo'jiza". Tennis muxlislari o'zlarini baxtiyor sezishlari mumkin, chunki Mariya Sharapova atalmish yulduz hamon kortda mo'jizalar yaratishda davom etyapti.

MUNDARIJA

Mashhur sportchi bo'lmoqchimisiz?	3
Ilm so'qmoqlaridan yuksakliklarga intiling	7
O'zbekiston – kurash vatani!	12
Kitoblarning “bo'ka”si	17
Maradona	21
Guldasta ko'targan yigit	25
Chempionlikning olis va mashaqqatli yo'li	34
O'zbekim bahodiri	38
Ruslan polvon	43
O'zbek qizlarining shohmot yulduzi	46
Baxtli Zayniddin	49
Biz bilgan, bilmagan Ronaldo	52
Basketbol – mening hayotim	56
Sharapova – mo'jiza	60

Mo'min Asror
M99 **Chempionlik sirlari.** Badialar/Asror Mo'min. –
T. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy
nashriyoti, 2007. – 64 b.

BBK 75.1.

ASROR MO'MIN

CHEMPIONLIK SIRLARI

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
Toshkent–129, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

Muharrir	H. Alimuhamedova
Badiiy muharrir	A. Burhonov
Tex. muharrir	M. Olimov
Musahhih	I. Karimov
Sahifalovchi	A. Yoqubjonov

2007-yil 27-martda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Arial garniturası.
3,72 shartli bosma taboq. 2,70 nashriyot hisob tabog‘i.
Adadi 2000. Bahosi shartnoma asosida.
07-576-buyurtma.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston”
nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida bosildi.
Toshkent–129, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.